

**Ministerium für Hoch - und Fachschulbildung
der Republik Usbekistan
Qarschier Staatlicher Universität
Fakultät für Fremdsprachen
Lehrstuhl für Deutschsprache und Literatur**

QUALIFIKATIONSARBEIT

zum Thema: **Der Gebrauch der Hilfsörter im Deutschen und Usbekischen**
(über den Partikeln)

Deutschsprache und Literatur
zur Erlangung des Bachelortitels

Die Qualifikationsarbeit ist geprüft und
zur Verteidigung zugelassen.

„_____“
Lehrstuhlleiter: A.Y.Mahmudov

Vorgelegt von der Student:

Artikov Boris

Wissenschaftliche Betreuerin:

U.Nazirova

Gutachter: _____

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB O'ZBEK TILIDA YORDAMCHI SO'ZLAR VA ULARNING QO'LLANILISHI	
.....	7
1.1. Yuklamalarning ma'noga ko'ra turlari.....	7
1.2. Yuklamalarning gapda qo'llanilish ma'nolari.....	13
1.3. "Emas" yuklamasining gapda qo'llanilishi.....	23
II BOB. NEMIS TILIDA YORDAMCHI SO'ZLAR VA ULARNING QO'LLANILISHI	
.....	26
2.1 Nemis tilida yuklamalarning ma'noga ko'ra turlari	26
.....	26
2.2. "Nicht" inkor yuklamasining gapda qo'llanilishi	33
2.3. Modallikni ifodalovchi yuklamalar xususida.	38
XULOSA.....	48
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	52

KIRISH.

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risidagi»gi qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy vazifalari mamlakatimizda xorijiy tillarni mukammal biladigan yuqori malakali, sifatli kadrlar tayyorlashga qaratildi. Ayni kunlarda 2011 – 2016 yillarda Oliy o‘quv yurtlarini rivojlantirish dasturi ishlab chiqilayotganining o‘zi ham oliy ta’lim sohasida qilinayotgan yangilanishlarning yana bir isbotidir. “Dasturdan ko‘zlangan asosiy maqsad – oily ta’lim muassasalarining moddiy – texnik bazasini yanada mustahkamlash, ularni zamonaviy o‘quv, laboratoriya va ilmiy uskunalar bilan jihozlash, pirovardida o‘quv dasturlarini takomillashtirish, tobora kuchayib borayotgan zamon talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlashda sifat jihatidan yangicha yondashuvlarni hayotga tatbiq etishdan iborat”¹.

Davlatimiz, xususan Prezidentimizning ta’lim sohasiga, chet tillarni o‘qitish va o‘rganishga nisbatan alohida e’tibor qaratishi tilshunoslikning nazariy va amaliy sohalarida tilshunos olimlarimiz oldiga yanada mas’uliyatli vazifalarni qo‘ydi. Bunday vazifalarning dolzarbligi haqida gapirib, yurtboshimiz I.A.Karimov quyidagilarni ta’kidlagan edi: “... zamonaviy fan taraqqiyotining asosiy yo‘nalishi jahon miqyosida chiqqan tillarni, ayniqsa ilg‘or texnikaviy tafakkur ifodalanayotgan tillarni bilishni taqozo etadi. Biz ingliz, fransuz, nemis va ispan tillarini va boshqa tillarni o‘rganishni butun choralar bilan rag‘batlantirishimiz lozim”². Hali mamlakatimiz mustaqillikka erishmasdanoq davlatimiz rahbari I.A.Karimov yoshlarni zamonaviy fan-texnikaning, umuman, ilm-fanning yutuqlaridan bahramand qilmasdan turib, ularda yuqori malakali ixtisos egalari bo‘lib yetishishga

¹ Karimov I.A. Barcha va reja dasturlarimiz Vatanimiz tarqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz faravonligini oshirishga xizmat qiladi. Prezident I.A.Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo‘ljallangan eng muhim ustuvor yo‘nalishlarga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi \ Ma’rifat, 2011 yil 22 – yanvar.

² Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –Toshkent, “O‘zbekiston”, 2011 y. –B.90.

sharoit tug'dirmay turib, respublikaning xalq xo'jaligini, sanoat ishlab chiqarish sohalarini tubdan o'zgartirib bo'lmasligini ta'kidlab o'tgan edi ³.

Insoniyat hayotida yuz berayotgan har qanday o'zgarishlar, tilshunoslik fanining rivojlanishiga ham o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazmoqda. Xorijiy tillarni nazariy jihatdan o'rganish barcha talabalarning bilim saviyasini oshiradi. Professor A.A.Abdudzizov ta'kidlaganidek, "... til dalillarini ongli ravishda o'zlashtirish, nazariy bilimlar ustida ongli ravishda ilmiy tadqiqotlar olib borish ham o'z ona tilimizni, ham xorijiy tillarni amaliy o'rganishga yordam beradi"⁴.

Dunyoda rivojlanmaydigan narsaning o'zi yo'q, chet tillar ham bundan mustasno emas. Bir tomondan til ijtimoiy hodisa va tizim sifatida kundan-kunga o'zgarib takomillashib borsa, ikkinchi tomondan bu hodisani o'rganuvchi fan ham katta odimlar bilan ilgarilab ketmoqda. O'zligimizni anglash, ichki hissiyotlarimizni tushunish, ularni ifoda etish ham tilimizga, uning bizga bergan imkoniyatlariga bog'liq. Jamiyatni, uning rivojini, gullab - yashnashini, taraqqiyotini ta'minlovchi vosita bu - tildir.

Jumladan nemis tili ham hozirda yurtimizda o'rganilishi kerak bo'lgan tillar sirasiga kirib ulgurgan. Buning isbotini yurtimizda bu borada amalga oshirilgan ishlar misolida ham ko'rishimiz mumkin. Yurtimizning deyarli barcha viloyatlaridagi oliygohlarida chet tillari, jumladan nemis tili fakulteti yoki bo'limining mavjudligi va mamlakatimizda Germaniyaning DAAD hamda Gyote institutining faoliyat olib borishi fikrimizning yaqqol misolidir. Tabiiyki bu kabi imkoniyatlarning yaratilishi tilning turli jabhalarida yangidan-yangi izlanishlarni talab qiladi. Jumladan biz ham bitiruv malakaviy ishimizda nemis va o'zbek tillarida yordamchi so'zlar (yuklamalar misolida)ning qo'llanishini qiyosiy tadqiq qildik.

³ Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –Toshkent, “O'zbekiston”, 2011 y. –B.137.

⁴ Abdudzizov A.A. O'zbek tili fonologiyasi va morfologiyasi. –T., “O'zbekiston”, 1992, -B. 5-6.

Bitiruv malakaviy ishimiz kirish, uchta bob, har bir bobda ikkitadan paragraf, xulosa, ilova, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishimizning kirish qismida ishimizning maqsadi, vazifasi, dolzarbligi, tadqiqot materiali, ishning o'rganilganlik darajasi, ishning nazariy va amaliy ahamiyati qayd etilgan bo'lsa, asosiy qismda o'zbek va nemis tillarida yordamchi so'zlarning qo'llanilishi misollar bilan yoritib berildi.

Bitiruv malakaviy ishimizning birinchi bobi o'zbek tilida yordamchi so'zlarning qo'llanilishi va ularning ma'nosiga turlari xususida bo'lib, yordamchi so'zlarning xususiyatlari aniq yoritib berilgan.

Bitiruv malakaviy ishimizning ikkinchi bobi ishimizning asosiy qismi bo'lib, biz unda nemis tilida yuklamalarning gapdagi vazifasini tadqiq qilib misollar tariqasida o'rganib chiqdik.

Ishimizning xulosa qismida erishilgan natijalar va olingan bilim-ko'nikmalarning sarhisobi berilib, xulosa qilingan bo'lsa, ilovada misollar jamlanmasi taqdim etildi.

Bitiruv malakaviy ishimizning so'ngida esa ushbu tadqiqotimizni imkon qadar yoritishda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati kiritib ketildi.

Tadqiqotning dolzarbligi nemis va o'zbek tillarida yordamchi so'zlarning qo'llanilishi va ularning qiyosiy tahlilini yoritib berishdan iborat .

Tadqiqotning maqsadi nemis tilida yordamchi so'zlarnig qo'llanilishini tahlil qilish va ularni o'zbek tilida berilishini o'rganish.

Tadqiqotning vazifasi nemis tilida yaratilgan asarlarda yordamchi so'zlarning qo'llanilishini o'rganish va tahlil qilish .

Tadqiqot materiali sifatida nemis adiblari Bruno Apitsning "Nackt unter der Wölfen" hamda bu asarning Yanglish Egamova tomonidan qilingan "Qashqirlar changalida" tarjimasini va Tomas Mannning "Buddenbrocks", hamda Y.Becherning "Abschied" asarlari tanlab olindi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Mazkur bitiruv malakaviy ishida erishilgan natija va xulosalarga tayanib, yosh tarjimonlar nemis tilida yaratilgan asarlarining o‘zbek tiliga qilayotgan tarjimalarida hamda ilmiy maqolalar yozishda va BMI yozishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining o‘rganilganlik darajasi yordamchi so‘z turkumlari tilshunos olimlar V.Vinogradov, Emelyanova va Kononovlar tomonidan turlicha tadqiq qilingan .

Shuningdek ushbu bitiruv malakaviy ishida tasviriy-qiyosiy metoddan foydalanildi.

I BOB O'zbek tilida yordamchi so'zlar va ularning qo'llanilishi

1.1 Yuklamalarning ma'noga ko'ra turlari

Yordamchi so'zlarning umumiy funksional belgisi "bog'lash"dir. Shu belgi asosida ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalar so'z va gaplarni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladi. Ammo bu vazifa bog'lovchi va ko'makchilar uchun o'zgarmas, barqaror sanaladi. Yuklamalarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular so'z yoki gaplarga so'roq, ta'kid, kuchaytiruv, ayirish-chegaralash, o'xshatish kabi qo'shimcha ma'nolarni beradi va funksional "bog'lash" belgisiga nisbatan beqaror, o'zgaruvchan sanaladi, ya'ni "bog'lash" belgisi bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Chunonchi, *na-na* yordamchisi teng bog'lovchilarning bir turi sifatida inkor bog'lovchisi sanalib kelgan. G'.Abdurahmonov esa uni inkor bog'lovchisi deb atash bilan birga, yuklamalik xususiyatiga ham egaligini ko'rsatadi. Haqiqatan ham, bu yordamchi ham bog'lovchilik, ham yuklamalik vazifasini bajaradi. Bog'lovchi vazifasida kelganda ayrim teng huquqli bo'lak (komponent)larga inkor ma'nosini berib, ularni bog'laydi: *Na so'zlarida ma'no bor, na ishlarida hayo.*(Oybek). Bu yordamchi so'z yuklama vazifasini bajarib, mazmunidan inkor anglashilgan gaplar tarkibida keladi va inkor ma'nosini ko'rsatadi: *Raisning erkato'y o'g'li na o'qiydi, na biror joyda ishlaydi.*¹

Go'yo so'zi o'xshatish yoki chog'ishtirish mazmunli sodda va qo'shma gaplar tarkibida ishtirok etadi. Sodda gaplardagi vazifasiga ko'ra ko'proq yuklamalarga yaqin turadi: *Tursunoy go'yo qalbi bilan ashulaga jo'r bo'lar edi.* (A.Muxtor.) *Kampirning yuzida go'yo kulgiga o'xshagan bir narsa aks etdi.* (A.Qahhor.) *Go'yo* yordamchisi qo'shma gaplarda sodda gap qismlarini biriktiruvchi grammatik vositalarning biri sifatida xizmat qiladi, ya'ni qo'shma gapdagi vazifasiga ko'ra sodda gapdagi vazifasidan farqli o'laroq, u faqat yuklamagina emas, balki bog'lovchi-yuklama sanaladi: *Ertaga nikoh bo'ladi, go'yo men uning xotini.* (Oybek.) *Shunday baqirdiki, go'yo butun xona larzaga kelgandek bo'ldi.* (A.Qahhor.) *Aytdimi, qiladi, Qo'ydi-da, chiqdi* gaplarida ham –

¹Sayfullayeva R., Mengliyev B., Qurbonova M. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. B.310.

da qo‘shimchasimon yuklamalarning bog‘lovchilik xususiyatini kuzatish mumkin. Demak, yuklamalarning qo‘shma gap tarkibiy qismlarini o‘zaro bog‘lash vazifasi keng uchraydigan hodisa ekan va bu tilshunosligimizda ma‘lum darajada o‘rganilgan.¹

Ko‘pgina yordamchi so‘zlarning qo‘shimchasimon ko‘rinishlari ham mavjud, bu yuklamalarga ham xos:*ham, -am /-yam; uchun, -chun; -u, -yu; bilan, -ila, -la* shular jumlasidandir. Yuklamalar shakliy jihatdan uch xil ko‘rinishga ega:

1. Qo‘shimchasimon yuklamalar: *-mi, -chi, -a, -ya....*

2. Sof yuklamalar: *xuddi, faqat, axir....*

3. Nisbiy yuklamalar: *yolg‘iz, ba‘zan, tanho, bir....*

Yuklamalar vazifaviy jihatdan quyidagi ma‘no turlariga bo‘linadi:

So‘roq yuklamalari: *-mi, -chi, -a, -ya, nahotki*. Bu yuklamalar turli so‘z turkumlariga qo‘shilib, so‘roq ma‘nosini bildiradi. Ba‘zan so‘roq ma‘nosidan tashqari taajjublanish, hayratlanish ma‘nolarini ham ifodalaydi.

-mi affiks yuklamasi o‘zidan oldingi so‘zga qo‘shib yoziladi, *-chi, -a, -ya* yuklamalari esa o‘zidan oldingi so‘zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi: 1. *Kiyganingiz ipakmidi, kimxobmidi, Sevganingiz bizlardan ham ortiqmidi? 2. Opang-chi? Sen-chi? Men-a? Meni-ya? 2. Nahotki shu gaplarga ishongan bo‘lsangiz.*

Ayirish-chegaralash yuklamalari: *faqat, faqatgina, -gina (-kina, -qina)*.

Bu yuklamalar ayrim narsa va hodisalarni boshqalardan ajratish, harakatni chegaralash uchun qo‘llaniladi. *-gina* affiks yuklamasi o‘zidan oldingi so‘zga qo‘shib yoziladi: *To‘yga Sheraligina kelmadi, xolos. O‘ktam indamadi, faqat yuragida to‘lqinlangan mehr bilan onasiga tikildi. Faqat yuklamasining o‘rnida yolg‘iz so‘zini ham qo‘llash mumkin. Sifat so‘z turkumiga oid bu so‘z nisbiy yuklama hisoblanadi: Sobir, yolg‘iz senga suyandim (Sobir, faqat senga suyandim).*

¹Sayfullayeva R., Mengliyev B., Qurbonova M. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. B.311.

Ta'kid yuklamalari: *-ku, -da, -u, -yu*. Gapda ifodalangan biror voqeani ta'kidlash uchun qo'llaniladi: *Sobir-ku keldi, Mahmud kelmadi-da!*

Kuchaytiruv yuklamalari: *axir, hatto, hattoki, -oq (-yoq)*.

-oq, (-yoq) affiks yuklamasi o'zidan oldingi so'zga qo'shib yoziladi. Harakatning birin-ketin tezlik bilan davom qilishini, boshlanish paytini, ta'kidlashni ko'rsatadi: *Gullarni ko'riboq ko'ngli yorishdi. Axir, hatto, hattoki* yuklamalari ham fikrni kuchli ta'kidlash, avvalgi voqeani eslatishni ifodalaydi: *Axir do'stimsan-ku!*

O'xshatish-qiyoslash yuklamalari: *xuddi, naq, go'yo, go'yoki*. Bahorda bu bog'lar go'yoki kelindek yasanadi. (*Chirildoqlarning mayin musiqasi hamma yoqni to'ldirgan, go'yo kechaning o'zi kuylaydi* kabi gaplarda yuklama-bog'lovchi vazifasini bajaradi.)

Inkor yuklamasi: *na*. Takror holda ishlatilib inkor ma'nosini ifodalaydi:

Na ko'kning fonari o'chmasdan,

Na yulduz sayr etib ko'chmasdan. (U.)

Yordamchi so'zlar – ko'makchi, bog'lovchi va yuklamalar tilimizni, uning cheksiz imkoniyatlarini yana ham boyroq, ifodalarimizni yana ham aniqroq va go'zalroq qilishning vositalaridandir.

Mustaqil so'z va gaplarga qo'shimcha ma'no beradigan yordamchilar **yuklama** deb aytiladi. Yuklamalar tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi. **1) so'z yuklamalar:** faqat, ham, axir, hatto. So'z yuklamalar o'zi bog'lanib kelgan so'zlardan vergul bilan ajratilmaydi. **2) qo'shimcha ko'rinishdagi yuklamalar:** -ku, -mi, -a, -gina. Yuklamalar ham **sof** yoki **vazifadosh** bo'lishi mumkin. Faqat yuklama guruhiga kiradigan *faqat, hatto, -mi, -ku* kabi birliklar **sof yuklamalar** hisoblanadi. Ayiruv – chegaralov yuklamalari o'rnida qo'llanadigan *yolg'iz* (asli sifat) so'zi **vazifadosh yuklamadir:** *Bu yolg'iz nom, boshqa narsa emas.*

Tilga tizim-tuzilish sifatida yondashish bir qancha nazariy chalkashliklarga oydinlik kiritdi. Ayniqsa, yordamchi so'z turkumlarining semantik-grammatik xususiyatlarini belgilashda bunday yo'nalish asosiy omil bo'lmoqda. Chunki so'z

turkumlariga ajratish tamoyillari ham tizimli munosabatni taqozo etadi. Soʻz turkumlari leksik-semantik, morfologik, sintaktik tamoyil asosida ajratilar ekan, bir necha sathlar doirasidagi munosabatdorlik oʻlchov boʻladi. Lekin qaysi oʻlchov kuchli yoki kuchsiz boʻlishini tizimli munosabat aniqlab beradi. Mustaqil soʻz turkumlarini ajratishda lisoniy jihatdan qiyinchilik sezilmaydi. Ammo yordamchi soʻz turkumlarini, ayniqsa, yuklamalarni ajratishda oʻziga xos murakkablik bor. Bunday murakkablik tilga tizim sifatida yondoshish orqali yechish mumkin. Yuklamalarning murakkabligi - leksik ma'noga ega emasligi, sintaktik munosabat ifodalamasligi, pragmatik vazifa bajarishi, qoʻshimcha ma'no ifodalash bilan belgilanadi. Yuklamalarning oʻziga xos xususiyatidan kelib chiquvchi murakkablik ularning vazifasiga ham ta'sir etadi. V.Vinogradov yuklamalar yordamchi soʻzlar doirasidagi oʻz leksik-grammatik belgisiga, tarixiy-taraqqiyotiga va semantik-grammatik gruppalariga ega boʻlgan kategoriyadir. Ularning leksik ma'nolari grammatik, logik va ekspressiv-stilistik funksiyalariga teng keladi. Shuning uchun ularning mazmuniy tomoni keng, sintaktik sathda foydalanish qulaydir, -deb, yuklamalarning boshqa soʻz turkumlariga oʻxshamagan tomonlarini ochib berdi. F.F.Fortunatov ularni semantik oʻlchov asosida oʻrganish kerak deydi. A.M.Peshkovskiy ham yuklamalarni sintaktik qamrov asosida oʻrganishni taklif etadi⁴. A.Shaxmatov yuklamalarni predikat bilan turli munosabatda bogʻlanib, unga kuchaytiruv, ta'kid va turli ma'no jilovlarini beruvchi alohida soʻzlar guruhi sifatida talqin etadi⁵ hamda yuklamalar mustaqil morfologik kategoriyalariga ega boʻlmasa ham, sintaktik qurilishda bir element, birlik sifatida ishtirok etishini ta'kidlaydi. Demak, F.F.Fortunatov, A.M.Peshkovskiy, A.A.Shaxmatovlar yuklamalarni morfologik jihatdan tasnif qilsalar ham, sintaktik oʻlchov bilan oʻrganishni ma'qul koʻrganlar. Yuklamalarni, umuman olganda, leksik ma'noga ega boʻlmagan soʻzlarni sintaktik qurshov asosida oʻrganish ma'qul. Chunki ularning oʻziga xos xususiyatlari sintaktik qurshovda oydinlashadi.

V.V.Vinogradov yuklamalarni F.F.Fortunatovning morfologik uslubi va A.A.Shaxmatovning sintaktik yoʻnalishi asosida tadqiq etdi. Uning ilmiy ishlari

N.Yu.Shvedova, L.M.Chistyakova, G.G.Skib va boshqalar tomonidan ijobiy davom ettirildi.

Yuklamalar soʻz yoki gapga qoʻshimcha maʼno jilosi berish uchun ishlatiladi¹. Demak yuklamalarni aniqlashda matn alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki biror soʻzga, gapga maʼno jilosi yuklashni matnsiz tasavvur qilib boʻlmaydi. Shuning uchun yuklamalar morfologik jihatdan imkoniyat tarzida ajratilsa ham, sintaktik qurshov uning oʻziga xos xususiyatlarini belgilaydi. Yaʼni, grammatik maʼno va sintaktik bogʻlanish hamda qoʻshimcha maʼno jilosi asosiy mezon hisoblanadi.

Yuklamalar bogʻlovchi va predloglarga oʻxshash oʻzgarmaydigan, toʻla maʼnoga ega boʻlmagan yordamchi soʻzlar gruppasiga kiradi. Ular gapda gap boʻlagi boʻla olmaydi. Yuklamalar har ikki tilda ham gapning biror boʻlagi yoki butun gapning mazmuniga qoʻshimcha maʼno berish uchun xizmat qiladi. Yuklamalar maʼnosiga koʻra quyidagi turlarga boʻlinadi:

- 1) Kuchaytiruv- taʼkid yuklamalari
- 2) Ayiruv-chegaralov yuklamalari
- 3) Inkori yuklamalari
- 4) Bogʻlovchi yuklamalar
- 5) Oʻxshatish – qiyoslash yuklamalari
- 6) Gumon yuklamasi

- **Kuchaytiruv- taʼkid yuklamalari** oʻzi qoʻshilgan soʻz maʼnosini yoki oʻzi ishtirok etgan gap mazmunini kuchaytirib, taʼkidlab ifodalaydigan yuklamalardir. Bularga: *nahotki, axir, gʻirt, hatto(ki), -oq(-yoq), -ki(kim), -ku, -da, -u(-yu)* kabi yuklamalar kiradi: *Bogʻ koʻchalarida tizza boʻyi qizigan tuproq bilq-bilq, oʻrkach paxsa devorlardan osilib yotgan sertuk oltin shaftolilar, jiyda-yu olxoʻrilar saratondan bahra olib, uning hukmiga itoat saqlashardi. (Mirmuhsin „Umid“.)*
- **Ayiruv-chegaralov yuklamalari** oʻzi bogʻlangan soʻzning maʼnosini ajratib yoki chegaralab keladigan yuklamalardir. Bularga *faqat, -gina(-kina,-qina),*

- yuklamalari kiradi. Darboza oldi jimjit, **faqat** o'tin ortgan ikki-uch eshakkina bozor tomon dikillab borardi. (Mirmuhsin.)
- **O'xshatish-qiyoslash yuklamalari** o'zi bog'lanib kelgan so'zga o'xshatish-qiyoslash ma'nolarini kiritadigan yuklamalardir. Bularga *xuddi, go'yo* so'zlari kiradi: *Burgut va kalxatlar ham qayoqqadir g'oyib bo'lgan, go'yo osmon bag'riga singib ketgan.* (Odil Yoqubov)

Gumon yuklamasi o'zi bog'lanib kelgan so'zga noaniqlik, gumon ma'nolarini kiritadigan *–dir* qo'shimcha ko'rinishidagi yuklamadir. Bu yuklama *–dir* kesimlik qo'shimchasi bilan shakldoshdir. Qiyoslang: *Vatanni sevmog iymondandir.* (kes. qo'sh.) – *Uyiga yetib borgandir.* (gum.yukl.)

1.2 Yuklamalarning gapda qo'llanilish ma'nolari

Ham yuklamasi takroriylik ma'nosini ifodalovchi presuppozisiyaga ishora vositasi bo'lib kelganda, ko'p holatlarda, payt ma'nosini bildiruvchi so'zlar bilan bog'lanib keladi va kesimdan anglashilgan ish-harakatning takroriyligini ko'rsatish orqali presuppozisiyani yuzaga keltiradi. Kesimdan anglashilgan ish-harakatning takroriyligi shakl jihatdan, gapda ishtirok etmagan bo'lsada, ham yuklamasining ishorasi tufayli yashirin tushuniladi. Masalan: Vazira bugun ham shunday ahvolda tong ottirdi (S.Zunnunova. Go'dak hidi. 127-bet) gapida gapning mavjud, bo'laklari orqali ifodalangan ochiq propozisiya - Vazira bugun ham shunday ahvolda tong ottirgan"ligi; presuppozisiya - Vaziraning ahvoli avvalgi kunlari ham bugungiday ekanligi. Bu gapda Vaziraning tong ottirishdagi holati davomiy, ya'ni avvalgi kunlaridagi holat bugun ham takror bo'lganligiga **ham** yuklamasi va payt bildiruvchi "bugun" so'zlari ishora qilayapti.

Davom etish, takror etish ma'nolari o'sha payt, ya'ni gapda ifodalangan va ham yuklamasi ta'kidlab ko'rsatayotgan paytda ham qayta takrorlanganligi bilan yakunlanadi. Yuqoridagi gapdan Vazira avvalgi kunda qanday tong ottirgan bo'lsa, bugun ham shunday tong ottirganligi yashirin tushuniladi.

Ko'rinadiki, kesimdan anglashilgan ish-harakatning avvallari ham bo'lganligiga ishora qiluvchi vosita ham yuklamasi va payt bildiruvchi so'z bo'lmoqda, shu bilan birga takroriylik ma'nosidagi presuppozisiya yuzaga kelmoqda.

Qora yigit kechqurun ham keldi ("Sharq yuludzi") gapida ish-harakatning qayratirilishi bir kun ichida bo'lganligini, lekin kunning ma'lum vaqtlarida qaytarilganligi yashirin anglashiladi. Solishtiring:

1. Propozisiya - Qora yigit kechqurun keldi. 2. Presuppozisiya (biz bundan keyingi sharhlarda yashirin propozisiya - presuppozisiya deyish o'rniga, presuppozisiya deyishni ma'qul ko'rdik) - Qora yigit kunduzi ham kelgan. Bu gapda (umuman presuppozisiyaga ko'ra gaplar shakl jihatdan ixchamlashadi) til

taraqqiyotining yetakchi tendensiyalaridan biri bo'lgan til ekonomiyasi hodisasi ko'rinadi. Ya'ni, "kechqurun ham" qurilmasi orqali "kunduzi ham" tushunchasi yashirin anglashiladi.

Bunday tipdagi gaplarda ham yuklamasi payt munosabati anglatgan so'zlar bilan birga presuppozisiyani yuzaga keltirishi alohida ahamiyatga ega. Chunki payt bildiruvchi so'z ma'lum bir "butunlik"ning "qism"ini, ya'ni sutka - butun, sutkaning qismlari - ertalab, tush, kechki payt, kechqurun va shu kabi ma'nolarni anglatishi mumkin. Xuddi shu asosida takroriylik qanday butunlikda, ya'ni sutkaning qismlaridami, haftaning qismlaridami yoki oyning, yilning, asrning va h.k.larning qismlarida ro'y berganligi aniqlanadi va presuppozisiya tushuniladi. Shuning uchun payt bildiruvchi, so'z ma'nosi ham presuppozisiyani yuzaga kelishida alohida ahamiyatga ega. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ham yuklamasi hozir, boya, bugun, kecha, avval, oldin, endi, indin, kech, so'ng, keyin, dastlab, saharlab, ertalab, doim, hali, ertalab, tushda, kechki payt, kechqurun, yarim kecha, tong sahar, fasllarni bildiruvchi so'zlar: bahor, yoz, kuz, qish,; yil oylari: yanvar, fevral, mart, aprel, may, iyun, iyul, avgust, sentyabr, oktyabr, noyabr, dekabr; hafta kunlari - dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba, juma, shanba, yakshanba, soatlar, yillar, asrlar vash u kabi boshqa payt munosabatini bildiruvchi so'zlar bilan qo'shilib kelganda takroriylik ma'nosini ifodalovchi presuppozisiyaga ishora qiladi.

M: 1. Do'konimiz azamat tollar ostida va ayvon bo'lishiga qaramay, kunduzi ham eshikni yopib, chiroq bilan ishlar edik. (A.Qahhor).

2. Manna bugun ham brigadamizdagi o'n ikki kishining hammasini, xafa qildim (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi. 11-bet).

3. Mana, hozir ham Tim qorong'i va zax, chakalakzordan ketayapmiz (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi. 19-bet).

4. Salim buva yozda ham keldi ("Sharq yulduzi").

5. Karim cho'pon soat o'n birda ham qo'ylarini suvga olib keladi. ("Sharq yulduzi").

6. Bu masalani mayda ham ko'rib chiqamiz ("Sharq yulduzi")

7. Shanbada ham leksiya o'qilar ekan.

Ko'rinadiki, yuqoridagi hamma gaplarda *ham* yuklamasi payt bildiruvchi so'zlar bilan birgalikda takroriylik ma'nosini ifodalovchi presuppozitsiyaga ishora qiluvchi vositasi bo'lmoqda. Ko'rib o'tilgan tipdagi gaplarning barchasida ham yuklamasi tushirib qoldirilsa, takroriylik ma'nosi ifodalanmay qoladi.

Takroriylik ma'nosini ifodalovchi presuppozitsiyani ham yuklamasidan tashqari yana, tag'in kabi yuklamalar ham yuzaga keltirishi mumkin. M.: Salim buva kecha yana keldi ("Sharq yulduzi") gapida "Salim buva avval ham kelgan" presuppozitsiyasi mavjud. Bu presuppozitsiyani yana yuklamasi yuzaga keltirmoqda. Biz bu xususda yana yuklamasi presuppozitsiyasini sharhlagan qismda alohida to'xtalamiz.

Ham yuklamasi chiqish kelishigidagi so'z bilan keladigan ko'makchilar – so'ng, keyin, beri, buyon, ilgari, oldin, avval kabilar bilan birgalikda qo'llanib ham presuppozitsiyaga ishora qilishi mumkin. Bu ham takroriylik ma'nosini ifodalovchi presuppozitsiya hisoblanadi.

Biz yuqorida ko'rib o'tilgan gaplarning barchasida kesimdan anglashilgan ish-harakat bo'lishli, shuning uchun ish-harakatning bo'lishli takrorlanganligi ko'rinib turadi. Takroriylik gapda ko'rsatilgan paytgacha davom etishi *ham* yuklamasi orqali anglashilib turadi. Agar kesim bo'lishsiz shaklda bo'lsa, *ham* yuklamasidan anglashilgan ma'no bo'lishli kesim bilan shakllangan gaplarga qaraganda boshqacharoq bo'ladi. M.: Yodgor qorong'i kvartirasiga bugun ham kelmadi ("Sharq yulduzi") gapida takroriylik ma'nosi bo'lishsizlik asosida yuzaga kelmoqda. Bu gapda propozitsiya - Yodgor qorong'i kvartirasiga bugun kelmadi; presuppozitsiya - Yodgor qorong'i kvartirasiga avval ham kelmagan.

Presuppozitsiya kelmaganlikning takrorlanishi asosida yuzaga kelgan.

Kelmaganlikning bugun ham takrorlanishiga *ham* yuklamasi ishora qilayapti. Yuqoridagi singari bo'lishsiz shakldagi kesimlar orqali shakllangan gaplardan kutish ma'nosidagi presuppozisiya ham anglashilishi mumkin.

Lekin takroriylik singari ochiq ko'rinmaydi. M.: Orziqib kutilgan qor qishda ham yog'madi ("Sharq yulduzi") gapidan "Aslida yoqishi kerak edi" presuppozisiyasi ham anglashilishi mumkin. Bu gapda kutish ma'nosini ifodalovchi presuppozisiya ochiq anglashilmoqda. Lekin "Yodgor qorong'i kvartirasiga bugun ham kelmadi" gapida kutish ma'nosidagi presuppozisiya ochiq anglashilmaydi.

"Orziqib kutilgan qor qishda ham yog'madi" gapidagi kutish ma'nosini ifodalovchi presuppozisiya "qor" so'ziga ham bog'liq. Chunki qor yog'ishi albatta qish faslida bo'ladi. Shuning uchun qish faslida qor yog'ishini kutish tabiiy.

Agar ham yuklamasi uyushgan payt bildiruvchi so'zlarga bog'lanib kelsa, takroriylikdan ko'ra kutish ma'nosini ifodalovchi presuppozisiyaga ishora qiladi. M.: Zufar Hakimovich kecha ham, bugun ham kelmadi. (P. Qodirov. Uch ildiz. 81-bet) gapida xuddi ana shunday holat ko'zga tashlanadi. Bu xususda keyinroq to'xtalib o'tamiz.

Ham yuklamasi ot kesimli gaplarda payt bildiruvchi so'zlarga bog'lanib kelganda ham takroriylik ma'nosini ifodalovchi presuppozisiyaga ishora qiladi. M.: Samandar - bugun ham injener ("Sharq yulduzi") gapida "Samandar avval ham injener bo'lgan" presuppozisiyasi mavjud: Ko'rinadiki, endi ish-harakatning takroriyligi emas, kasbga egalik qilishning takroriyligini anglatadi. Demak, gapning kesimi kasbni anglatuvchi otlar bilan ifodalangan bo'lsa, ham yuklamasi va payt bildiruvchi so'z shu kasbga ega bo'lishning takroriyligini anglatadi va shu asnoda presuppozisiyani yuzaga keltiradi.

Agar kesim xususiyat, belgi, maza-ta'm, rang-tusni bildiruvchi so'zlar bilan ifodalangan bo'lsa, shu sifatga egalik avval ham bo'lganligini ifodalaydi va presuppozisiyani yuzaga keltiradi. M.: Choy endi ham bemaza (P.Qodirov. Uch ildiz.131-bet) gapida xuddi yuqoridagi holatni kuzatish mumkin.

To'siqsiz ma'nosini ifodalovchi yuklamalar

Ham yuklamasi shart fe'llari bilan kelganda (-sa ham qurilmasi), o'rin-payt kelishigi qo'shimchasini olgan sifatdosh bilan kelganda to'siqsizlik yuklamasi vazifasini bajaradi. Ham yuklamasi orqali ifodalangan to'siqsizlik ma'nosi ish-harakatning yuzaga kelishiga to'siq bo'la olmaslik asosida belgilanadi:

Shart fe'llariga bog'lanib, -sa ham qurilmasi tarzida to'siqsizlik ma'nosini ifodalab kelganda sintaktik qurilishida kesimdan anglashilgan ish-harakatning yuzaga kelishiga to'siq bo'lmaslikni ifodalaydi. Mazmuniy tuzilishda o'zi qo'shib kelgan shart formasidagi fe'ldan anglashilgan ish-harakatni umuman bo'lmaganligini ko'rsatadi va to'siqsizlik ma'nosini ifodalovchi presuppozisiyaga ishora qiladi.

M.: O'zi piyodalar komandiri bo'lsa ham, o'quvchilar pilotkasini kiygan komandirlar, politruklar paydo bo'ldi (Shuhrat, Shinelli yillar, 60-bet) gapida to'siqsizlik ma'nosi fe'lning shart formasi –sa va ham yuklamasi orqali ifodalangan va "politruklar, komandirlar - piyodalar komandirlaridir" degan presuppozisiya yuzaga kelmoqda.

Ko'rinadiki, to'siqsizlikni ifodalayotgan shart formasidagi fe'l bo'lishli bo'lsa, bo'lishli xarakterdagi presuppozisiya yuzaga keladi yoki aksincha.

M.: Itlar ongi bo'lmasa ham, ma'lum yumushlarni bajarmoqda gapida ham yuklamasi qo'shib kelayotgan shart formasidagi fe'l bo'lishsiz, shuning uchun mazmuniy tuzilishda yashirin tushuniladigan presuppozisiya ham bo'lishsiz xarakterda ("itlarning ongi yo'q") bo'ladi.

Sodda gaplarda kesimdan anglashilgan ish-harakat to'siqsizlik ma'nosini ifodalovchi so'z va ham yuklamasidan anglashilgan ma'noga qarama-qarshi bo'ladi, lekin qarama-qarshi bo'lsa ham, kesimdan anglashilgan ish-harakatning yuzaga kelishiga to'siq bo'la olmaydi. Presuppozisiya xuddi to'siq bo'la olmayotgan tushuncha orqali belgilanadi.

Qo'shma gaplarda esa (ergash gapli qo'shma gaplarda) to'siqsizlik ma'nosi butun bir gap sifatida ifodalanadi, ya'ni bosh gapdagi ish- harakatga to'siq bo'lishi mumkin bo'lgan holat va harakat ergash gap sifatida beriladi. Bunday holatlarda ham ergash gap orqali presuppozisiyani belgilash mumkin bo'ladi, lekin ishora qiluvchi vosita o'zgarmaydi. M.: Havo bulut bo'lmasa ham, yomg'ir yog'ayapti. Aslida yomg'ir yog'masligi kerak edi.

To'siqsizlik ma'nosidagi presuppozisiya ko'pincha sodda gaplarda aniq seziladi, Aniq chegaralash mumkin bo'ladi. M.: Pulim bo'lmasa ham, oldim gapida "puli yo'qligiga" ishora qilish orqali presuppozisiya maydonga kelgan. Yuqorida ko'rib o'tilgan gaplardagi singari noto'g'ri tasavvurni ifodalovchi presuppozisiya ham borgan o'xshab ko'rinadi, biroq to'siqsizlikka nisbatan ochiq emas.

Agar to'siqsiz ergash gapli qo'shma gapning kesimi fe'ldan boshqa so'z turkumi bilan ifodalangan bo'lsa, kesimdan keyin "bo'l" ko'makchi fe'li keltiriladi va shart formasi, ham yuklamasi ko'makchi fe'l bilan bog'lanadi. M.: Salima kelgan bo'lsa ham, zaldagilarning chegarasi ochilmadi ("Sharq yulduzi"). Bunday gaplarda presuppozisiya "Ummatali Nafisani kunda ko'rmasa ham, xaftada bir ko'pi turadi" gapidagiday ochiq sezilmaydi. Lekin presuppozisiyani ham yuklamasi orqali aniqlab olish mumkin.

"-ganda ham" konstruksiyasi orqali ifodalangan presuppozisiyadan noto'g'ri tasavvur ma'nosi anglashiladi.

Kutish ma'nosini ifodalovchi yuklamalar

Ham yuklamasi takroriy holatda uyushgan payt bildiruvchi so'zlarni ta'kidlab kelganda kutish ma'nosini ifodalovchi presuppozisiyani yuzaga keltiradi. M.: Juman tushda ham, kechki payt ham, yarim kechasida ham kelmadi. (A.Muxtor. Tug'ilish. 112-bet) gapidan kutish ma'nosini ifodalovchi presuppozisiyasi anglashiladi. Chunki Jumanning kelishi kerak ekanligi presuppozisiya orqali yashirin tushuniladi.

Ham yuklamasi aniq paytni bildiruvchi so'zlardan keyin kelganda ham kutish ma'nosidagi presuppozisiyaga ishora qiladi. M.: Zufar Hakimovich soat 1100da ham kelmadi (P.Qodirov. Uch ildiz. 87-bet) gapida "Zufar Hakimovich soat o'n birda kelishi kerak edi" presuppozisiyasi anglashilmoqda.

Presuppozisiyani yuzaga kelishida aniq payt bildiruvchi "soat o'n bir" konstruksiyasi va ham yuklamasi vosita bo'lmoqda.

Kutish ma'nosini ifodalovchi presuppozisiya anglashilgan gaplarning kesimi har doim bo'lishsiz shaklda bo'ladi. Ish-harakatning ma'lum bir paytda yuzaga kelishi kutilgan bo'lsa ham, bo'lmaganligi asosida presuppozisiya belgilanadi. Presuppozisiya ma'lum bir paytda ish-harakatning yuzaga kelishi kerakligiga ishora qilsa, gapning mavjud bo'laklari orqali ifodalangan propozisiya ish-harakatning yuzaga kelmaganligini anglatadi. Sintaktik (formal) jihatdan gapda ish-harakatning bo'lishsizligi anglatilsa, presuppozisiya shartlilik asosida tushuniladi. M.: Raisga soat o'nda ham mashina kelmadi (S.Siyoev) gapida yuqorida ko'rib o'tilgan holatni kuzatish mumkin. Propozisiya - raisga o'nda ham mashina kelmadi; presuppozisiya - raisga soat o'nga mashina kelishi kerak edi.

Gapning kesimi bo'lishsizlikni ifodalovchi so'zlardan bo'lganda, egadan keyin ham yuklamasi qo'shilsa ham, kutish ma'nosini ifodalovchi presuppozisiya anglashiladi. M.: Jo'raboy ham kelmadi (Oybek, Qutlug' qon, 31-bet) gapida ?am yuklamasi egadan keyin kelib, kutish ma'nosini ifodalovchi presuppozisiyaga ishora qilmoqda. Bunday gaplarda birgalik, qo'shib hisoblash ma'nolarini

ifodalovchi presuppozisiya borgan o'xshab ketadi, lekin kesimning bo'lishsizligi orqali presuppozisiyadan anglashilgan ma'no - kutish ekanligi aniq seziladi. Agar kesim bo'lishli bo'lganda edi birgalik, qo'shib hisoblash ma'nosidagi presuppozisiya anglashilar edi.

Qiyoslang: Eng mutaassib, eng rashkli erkaklar ham din va diyonatga zararli deb qaramaydilar (Oybek. Qutlug' qon, 119-bet) gapida "eng mutaassib, eng rashkli erkaklar din va diyonatga zararli deb qarashi kerak edi" presuppozisiyasiga ishora bor. Agar shu gapning kesimi bo'lishli shaklda ifodalansa, kutish ma'nosidagi presuppozisiya emas, birgalik, qo'shib hisoblash ma'nosidagi presuppozisiya anglashilar edi.

Ham yuklamasi -sa va -ganda qo'shimchalari orqali shakllangan so'zlarga qo'shib kelganda, biz yuqorida aytib o'tganimizdek to'siqsizlik yuklamasi vazifasini o'taydi. Xuddi shunday holatlarda, agar gapning kesimi bo'lishsiz shaklda bo'lsa, kutish ma'nosini ifodalovchi presuppozisiyani yuzaga keltiradi. M.: Karim aka Salimaning to'yiga ko'ngli qolgan bo'lsa ham, bordi ("Sharq yulduzi") gapida "Karim aka aslida bormasligi kerak edi" presuppozisiyasiga ishora bor. Chunki Karim akaning bormasligi kutilgan edi.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, shart shaklidagi fe'llardan va o'rin-payt kelishligi qo'shimchasini olgan sifatdoshlardan keyin qo'shib to'siqsizlikni ifodalovchi vazifada keluvchi ham yuklamasi agar bo'lishli xarakterda, agar kesim bo'lishli shaklda bo'lsa, presuppozisiyadan anglashilgan kutish bo'lishsiz xarakterda bo'ladi.

Ham yuklamasi hatto, hattoki, nahot, nahotki, axir kabi yuklamalar bilan birgalikda kelib kutish ma'nosidagi presuppozisiyaga ishora qilib keladi.

M.: "Kuzatish uchun hatto Zebo kelishi kerak edi" presuppozisiyasi bor. Presuppozisiya hatto va ham yuklamalari vositasida anglashilmoqda. Yoki Nahotki Vazira ham tushunmasa?

(S.Zunnunova. Go'dak hidi, 117-bet) gapida nahotki va ham yuklamalari kutish ma'nosidagi presuppozisiya (aslida Vazira tushunishi kerak)ga ishora qilayapti. Agar gapning predikati bo'lishli xarakterda bo'lsa, gapdan anglashilgan presuppozisiya bo'lishsiz xarakterda bo'ladi. M.: Hatto Murzin ham uxlab qoldi (Shuhrat. Shinelli yillar, 117-bet) gapida predikat bo'lishli bo'lganligi uchun anglashilgan presuppozisiya bo'lishsiz xarakterda tushuniladi.

Ham yuklamasi takroriy holda qo'llanib, gapning egasi, to'ldiruvchisi, aniqlovchisi, holi, kesimini ta'kidlab, kuchaytirib kelganda, o'zi ta'kidlab kelayotgan bo'lakdan anglashilgan tushunchalarni kutish ma'nosidagi presuppozisiya orqali shakllantiradi. M.: Mehmondorchilikda Salimaxon ham, surnaychi yigit ham ko'rinmadi ("Sharq yulduzi") gapida "Salimaxon va surnaychi yigit mehmondorchilikda bo'lishi kerak edi" presuppozisiyasi bor. Presuppozisiya ham yuklamasining takroriy qo'llanishi asosida yuzaga kelmoqda.

Ham yuklamasi tugul yuklamasi bilan birgalikda qo'llanib noto'g'ri tasavvur ifodalovchi presuppozisiyaga vosita bo'ladi. M.: Non tugul, urvoq ham yo'q ("Sharq yulduzi") gapida "non bor deb o'ylagan" presuppozisiyasi bor. Presuppozisiya tugul va ham yuklamalari vositasida tushuniladi.

Ham yuklamasi -yam shaklida (unlidan so'ng) va "h" undoshi tushgan holda qo'llanishi ham mumkin. Bunday chog'da o'zi aloqador bo'lgan so'zga qo'shib yoziladi,¹ lekin bunday holat presuppozisiya anglatib kelishiga ta'sir etmaydi. M.: Men ham bordim. Presuppozisiya - demak, boshqalar ham borgan.

Biz ham yuklamasining juda ko'p hollarda o'zi aloqador bo'lgan so'zdan keyin kelishini va presuppozisiya anglatishini ko'rib o'tdik. Faqat juda oz holatlarda gapning oxirida keladi. Gapning oxirida ham ("Sharq yulduzi") gapida "hech narsa o'zgargani yo'q" presuppozisiyasi anglashiladi.

Ham yuklamasi uchun, bilan kabi ko'makchilar bilan birgalikda qo'llanib ham presuppozisiya anglatib keladi. M.: Salim uchun ham oldi. Muxtorjon uchun

¹ Узбек тили грамматикаси. I-том. Тошкент, 1975 й.

ham gapirdim ("Sharq yulduzi"). Murzin bilan ham bordim (Shuhrat. Shinelli yillar, 171-bet). Birinchi gapda - "o'zi uchun ham olgan", ikkinchi gapda - "boshqalar uchun ham gapirgan", uchinchi gapda - "boshqalar bilan birga borgan" presuppozitsiyalari bor. Presuppozitsiya uchun, bilan ko'makchilari va ham yuklamalari vositasida tushuniladi.

Ham so'zlar tarkibida birikib, yangi so'z hosil qilib kelish hollarida ham presuppozitsiyaga ishora qiladi. M.: Konferensiyada dokladni hamxonam o'qidi ("O'zbek adabiyoti va san'ati") gapidan "doklad o'qigan odam bilan so'zlovchi bitta xonada turadi" presuppozitsiyasini tushunish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ham yuklamasi presuppozitsiyaning ishora vositalari ichida eng sermahsuli hisoblanadi, bu yuklama birgalik, qo'shib hisoblash, kutish, noto'g'ri tasavvur; o'xshatish, tenglash, takroriylik, to'siqsizlik kabi ma'nolarni ifodalovchi presuppozitsiyaga ishora vositasi bo'la oladi. Ham yuklamasi gapning turli bo'laklariga bog'lanib keladi va o'ziga xos presuppozitsiyani yuzaga keltiradi. Turli yuklama va ko'makchilar bilan birgalikda qo'llanib ham presuppozitsiyaga ishora qila oladi. Umuman, mazmuniy tuzilishining murakkab bo'lishi, mazmuniy tuzilish elementlaridan biri bo'lgan presuppozitsiyani reallashtiruvchi vositalar ichida eng ahamiyatlisi hisoblanadi. Ham yuklamasining mazmuniy tahlili shuni ko'rsatadiki, bu yuklama gapning qaysi o'rinda kelishidan qat'iy nazar yuklamalik xususiyatini saqlaydi. Uyushiq bo'laklarini biriktirib kelish holati esa, uslubiy jihatdan normaga to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun bu so'zni hamisha yuklamalar qatorida talqin etish kerak. Chunki ham yuklamasi gapda ma'lum nozik ma'no ottenka bermay qolmaydi. Bu esa, uning yuklamalik xususiyatini ham aniqlashtiradi va mustahkamlaydi.

«EMAS » YUKLAMASINING QO'LLANILISHI

Emas so'zi hozirgi kunga qadar yaratilgan ilmiy ishlar va darsliklarda turli tomondan talqin etiladi va bu so'zga xilma-xil ta'riflar beriladi. A.N.Kanonov bu so'zni uch elementdan: e, -er yordamchi fe'l o'zagi + -ma fe'lning inkor affiksi + - S - kelasi zamon qo'shimchalaridan iborat va u nomni, ba'zi hollarda fe'lning inkor shaklini hosil qiladi, deb izohlaydi¹. T.Rustamov inkor bildiruvchi so'z, inkor bog'lamasi, bo'lishsiz kesim o'rnida ishlatiladigan so'z, kesimlik bog'lamasi sifatida talqin etadi². A. Hojiev grammatik formantlar qatoriga kiritish kerakligini ta'kidlaydi.³ F.Kamol tahriri ostida 1957 yilda chiqarilgan hozirgi o'zbek adabiy tili kitobida emas yordamchisi⁴, akademik grammatikada va maktab darsliklarida to'liqsiz fe'l, yordamchi deyiladi.⁵ A.Nurmonov va R.Rasulovlar inkor yuklamasi sifatida izohlaydilar.⁶ Emas yuklamasi, zidlangan uyushiq bo'laklari, uyushgan egalar, to'ldiruvchilar, aniqlovchilar, hollarga bog'lanib inkor, chegaralash, ajratib ko'rsatish ma'nolarini anglatib kelishiga qarab uni inkor yuklamasi deyish ma'qul. Chunki yordamchi so'zlarning o'ziga xos xususiyatlari kontekst asosida yuzaga chiqadi va qaysi turga kirishi aniq bo'ladi. Emas yuklamasi kontekst ichida bog'lashdan ko'ra ma'no jilosi berishga moyil. Emas yuklamasining o'ziga xos xususiyatlari haqida talaygina ishlar qilingani uchun bu yuklamaning gap ichida kelish o'rinlari va qaysi bo'laklar bilan kelish hollari haqida to'xtalib o'tmaymiz. Chunki emas yuklamasining yuqoridagi xususiyatlarini yoritish ishimizning tub mohiyatini tashkil etmaydi. Biz bu yuklamaning presuppozisiya anglatib kelish hollarini talqin etamiz. "Uyida emas" yuklamasining gap tarkibidagi grammatik shakllangan bo'laklariga inkor ma'nolarini (biz bu o'rinda turli xil ma'no

¹ Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. М., - Л., 1960. стр.204

² Рустамов Т. Категория отрицания в современном литературном языке. АКД. М., 1956. стр.17

³ Хожиев А. Туликсиз феъл. Т., 1970. 4-бет

⁴ Хозирги замон узбек тили. Т., 1957. 456-бет

⁵ Узбек тили грамматикаси. I-том. Т., 1975. 457-бет; Турсунов У., Мухтаров Ж., Рахматуллаев Ш. Хозирги узбек адабий тили. Т., 1975, 216-бет

⁶ Нурмонов А.Н. Проблемы системного исследования синтаксиса узбекского языка. Т., 1982. стр.64; Расулов Р.Р. Узбек тилида ёрдамчи сузларнинг семантик-грамматик хусусиятлари. Т., 1983. 10-бет

nozikliklarini nazarda tutayapmiz) berishdan tashqari gap tarkibida grammatik shakllanmagan va gapga teng bo'lgan ma'nolari haqida fikr yuritiladi.

Emas yuklamasi ham, faqat yuklamalari singari presuppozitsiyaga yo'l ocha olishi bilan xarakterlidir.

Bu yuklama gapning zidlangan uyushiq bo'laklarga a) haqiqiy inkor; b) faraz qilingan inkor; v) qiyoslanayotgan inkor kabi ma'no jilolari yuklab keladi va mazmuniy tuzilishda turli xil ma'nodagi presuppozitsiyaga ishora qiladi. Bu yuklama ishtirok etgan gaplarning ham, semantik tuzilishi murakkab bo'ladi. Shuning uchun ham emas yuklamasini presuppozitsiyasi tahlil etish shu yuklamaning yana bir qancha o'ziga xos qirralarini ochib beradi va aniqlashtiradi. Emas yuklamasining inkorini ifodalash modellari xilma-xil, o'ziga xos, bir qancha vositalar bilan birgalikda kela olishi bilan ajralib turadi.

Emas yuklamasi o'rin hollari bilan birgalikda kelganda ham presuppozitsiya anglatadi. Bunday gaplarda emas yuklamasi ish-harakatning bajarilishi kerak bo'lgan joyda yuz bermay, boshqa joyda yuz berganligini ko'rsatadi va shu asosda presuppozitsiyaga ishora etadi. M.: Shunday qilib Yaypanga emas, Buvaydaga ko'chadigan bo'ldik (A.Qahhor. Asarlar, III tom, 288-bet) gapida "aslida Yaypanga ko'chishi kerak edi" presuppozitsiyasi bor.

Bu gap bozorda emas, shu yerda aytili ("Sharq yulduzi") gapida emas yuklamasi "Bu gap bozorda aytili deb o'ylangan" presuppozitsiyasiga ishora vositasi bo'lib kelgan. Ko'rinadiki, o'rin hollari bilan kelganda, ish-harakatning aslida bajarilishi kerak bo'lgan o'rniga inkor munosabatni bildirib, presuppozitsiyaga ishora qiladi.

Emas yuklamasi sabab, maqsad, daraja-miqdor hollari bilan birgalikda kelib ham turli ma'nodagi presuppozitsiyalarga ishora qila oladi. Presuppozitsiya ish-harakat yoki holatning yuz berishidagi sababi, maqsadi, daraja-miqdori kabilarga inkor munosabat orqali anglashiladi. Ish-harakat yoki holatning yuzaga kelishidagi aslida sabab, maqsad, daraja-miqdor bo'lishi kerak bo'lgan so'zlarga emas yuklamasi bog'lanib keladi va shu so'zlar bilan birgalikda presuppozitsiyani yuzaga keltiradi.

M.: Juman boshliqqa achchiqlanganidan emas, tushuntira olmasligidan gapirmadi (A.Muxtor. Tug'ilish,187-bet) gapida "Juman boshliqqa achchiqlanganidan gapirmadi deb o'ylangan" presuppozitsiyasi anglashilmoqda.

II BOB NEMIS TILIDA YORDAMCHI SO'ZLARNING QO'LLANILISHI

1.1 Nemis tilida yordamchi so'zlarning ma'noga ko'ra turlari

Yuklamalar bog'lovchi va predloglarga o'xshash o'zgarmaydigan, to'la ma'noga ega bo'lmagan yordamchi so'zlar guruhiga kiradi. Ular gapda gap bo'lagi bo'la olmaydi. **Yuklamalar** – atash vazifasi, lekin voqelikni (modal) ifoda qiladigan yordamchi so'z turkumidir. Yuklamalar har ikki tilda ham gapning biror bo'lagi yoki butun gapning mazmuniga qo'shimcha ma'no berish uchun xizmat qiladi. Masalan: Nichts Neues war dieser Befehl fürs Lager. **Er** kam **nur** wieder, wie seit Monaten oft, ein neuer Transport an. (B. Apitz, "Nackt unter Wolfen").

Die Blockführer, üble, prügelsüchtige SS-Leute, hatten das Anbringen der Karten geduldet und manchmal **sogar** eitel auf die Städte Rußlands getippt. (B. Apitz, "Nackt unter Wolfen"). Grammatikada yuklamalar muammosi juda kam o'rganilgan muammolardan sanaladi. Yuklamalar klassifikatsiyasi nemis tilshunos olimlar tomonidan turlicha o'rganilgan va yoritib berilgan. Ma'lumki, L.Zyutterlin yuklama atamasini-barcha o'zgarma so'zlar jamlanmasi deb izohlasa, Vilmans esa "yuklama" atamasini old qo'shimchalar turkumiga mansub deb ta'kidlaydi. Ushbu turkumga kiruvchi so'zlarga ko'makchi, bog'lovchi kabi yordamchi so'z turkumlari sifatida munosabat bildirilgan. Rus tili grammatikasida esa yuklamalar o'ziga xos leksik-grammatik ahamiyatga ega so'zlar guruhiga kiradi deb qayd etilgan.

V.Vinogradov yuklamalar yordamchi so'zlar doirasidagi o'z leksik-grammatik belgisiga, tarixiy-taraqqiyotiga va semantik-grammatik gruppalariga ega bo'lgan kategoriyadir. Ularning leksik ma'nolari grammatik, logik va ekspressiv-stilistik funktsiyalariga teng keladi. Shuning uchun ularning mazmuniy tomoni keng, sintaktik sathda foydalanish qulaydir, -deb, yuklamalarning boshqa so'z turkumlariga o'xshamagan tomonlarini ochib berdi. Biz Y.I.Shendelsning „Nemis tili grammatikasi“ da yuklamalarni yordamchi so'zlar sifatida uchratishimiz mumkin. Nemis tilida so'z turkumlarining tasnifini o'rganish jarayonida muallif yuklamani yordamchi so'z turkumiga ajratadi va shunday yozadi: Yordamchi so'z

turkumlari: ko'makchi, bog'lovchi va yuklama. Ular mustaqil leksik ma'no anglatmaganligi sababli gapda gap bo'lagi bo'lib kela olmaydi. Yuklamalar ham ko'makchi va bog'lovchi singari to'la ma'noga ega emas. Biroq, ular ko'makchi va bog'lovchilarga qaraganda kengroq mazmunda qo'llanadi. Nemis tili yuklamalari ustida birinchilardan bo'lib A.T.Krivososov 1963 yilda tadqiqot olib bordi va o'z tadqiqoti davomida yuklamalar doirasida „modal yuklamalar“ ni kashf etdi. Keyinchalik bu atama partikologiya nomi bilan, undan keyin esa X. Vaydt va G. Xelbiglar bu atamani boshqa nom bilan *sicher, gewiß, wahrscheinlich, vielleicht* kabi modal so'zlari bilan alishtirmaslik uchun *ottenochnoe* yuklamalar deb qo'llaydi. Ular bu tur yuklamalariga shunday ta'rif berishgan: *Ottenochnoe* yuklamalar - urg'usiz so'zlardir. Ular gap boshida qo'llanilmaydi. Ular yordamchi so'zlar guruhiga mansub bo'lsa-da, gapda bir qancha funktsiyani bajara oladi. Mazmun jihatdan tugallangan so'roqlarga javob bo'ladi. Ular barcha gaplarni bog'lash uchun xizmat qiladi.

G.Xelbig va Y. Bushalar ushbu fikrlarga zid o'laroq, yuklamalarga quyidagicha ta'rif beradi: “Yuklamalar – bu gap bo'lagi bo'la olmaydigan o'zgarmas so'zlardir. Yuklamalar guruhiga mustaqil ma'noga ega bo'lmagan so'zlar mansub bo'lib, ular hech qanday so'roqqa javob bo'la olmaydi”.

X. Busman o'zining “Lexikon der Sprachwissenschaft” nomli lig'atida: “Barcha o'zgarmas so'z va so'zlar turkumining umumiy ma'noda qo'llanilish doirasi keng” deb izoh beradi. Shu kabi aniq ma'lumotlarni Y. Erben, U. Engel, G. Grisbaxlarning “Duden” grammatikasidan topishimiz mumkin. P. Ayzenberg esa yuklamalar turkumini ravish, bog'lovchi va ko'makchilardan ajratib o'rganishni tavsiya etadi.

Yuklamalar haqida etarlicha aniq va to'liq ma'lumotni “Lingvistik atamalar lug'ati” bera oladi. Unda aytilishicha: “Yuklama – bu yordamchi so'zlarning bir turi bo'lib, mustaqil so'z turkumlari kabi semantik-sintaktik funktsiyani bajarib kelishi bilan birga so'zlovchining ma'lum bir harakati va holatini aniq ko'rsatib keladi.

Tilshunos olimlar yuklamalarni o'rganishning eng ma'qul usuli ularni klassifikatsiyasiga tayanib o'rganish ekanligini ta'kidlashadi. Yuklamalar klassifikatsiyasi turlicha talqin qilinadi va keng ko'lamda o'rganilgan. Masalan: Xelbig va Bushalarning tadqiqot ishlarida yuklamalar klassifikatsiyasi asosida ular ob'ektiv va sub'yektiv xususiyatlarga ega ekanligi kelib chiqadi.

Yuklamalar quyidagi semantik sinflarga bo'linadi:

Ob'ektiv xususiyatiga ko'ra:

1) Tasdiq va o'xshatish yuklamalari: *also, auch, denn, doch, eben, gerade, ja, nun, schon, zwar*

2) Chegaralov yuklamalari (einschränkende Partikeln): *nur, bloß, allein, erst, aber, beinahe, etwa, fast, ganz, ja, nahezu, noch, nur, selbst, ziemlich* va shu kabi yuklamalardan biri ot bilan bog'langan bo'lsa, u vaqtda yuklama shu predmetning o'ziga o'xshash predmetlardan kuchli farq qilishi ma'nosini bildiradi.

Ich brauche **nur** dieses Buch und kein anderes.

Einmal **nur**, in Untertertia, geschah es daß Diederich jede Rücksicht vergaß. Der Mecklenbürger klopfte ihn auf die Schulter. „Recht freundlich, kleiner! Alles **bloß** Freundschaft!“- und überdies nahm er Diederich die letzten zehn Mark an.

Herr Göppel erzählte. Diederich zugewandtet, daß er und seine Schwestern vorhin in der Friedrichstraße auseinandergekommen seien und sich **erst** im Omnibus wiedergefunden hätten. (H. Mann, „Der Untertan“.)

Erst chegaralov yuklamasi o'zbek tilidagi - **gina, faqat** yuklamalari ma'nolarida qo'llanadi. Bu yuklama zamon ma'nosini anglatadigan iboralar bilan birga ishlatiladi va biror ish-harakatning hozirgi paytdan ilgari sodir bo'lmaganini anglatadi.

Ich habe es erst heute erfahren. Der Zug nach der Hauptstadt fuhrt erst in einer Stunde. (W.Bredel, Die Enkel.)

Chegaralov yuklamalari asosan nemis va o'zbek tillarida bir-biri bilan mos tushadi, qiyoslang:

Nur- faqat, faqatgina; *allein*- yolg'iz, tanho. Masalan:

Ich habe **nur** Gutes von ihm gehört; was hast du bloß? Einzig und **allein**.

3) Kuchaytiruv yuklamalari (verstärkende Partikeln): *so, zu, ja, gar, sogar, selbst, doch, aber, auch, bereits, besonders, denn, doch, durchaus, etwa, ganz, gerade, geradezu, immer, mal, noch, schon, sehr, überaus, überhaupt, viel, weit, weitaus, zu* yuklamalarining hammasi ham kuchaytiruv ma'nosini anglatsa-da, biroq ulardagi kuchaytirishning darajasi turlicha, masalan, **zu** yuklamasi belgining ortiq darajada ekanini ifodalash uchun **juda** ma'nosida qo'llanadi: zu kalt, zu schlecht, zu klein, zu groß.

Zu kuchaytiruv yuklamasi **zu** ravishiga, **zu** predlogiga va **zu**-li infinitiv formasiga nisbatan omonimlik xarakteriga ega, qiyoslang:

Der Korb ist **zu** schwer. Die Tür ist **zu**. Er geht **zu** seinem Freund. Wir bleiben **zu** Hause. Du brauchst nicht **zu** eilen, wir haben noch Zeit.

„Sie sind **zu** streng, Papa. Warum sollte man in diesem Alte über dergleichen Dinge nicht seine eigenen wunderlichen Vorstellungen haben dürfen...“ (Th. Mann, „Buddenbrooks“).

So yuklamasi **zu** yuklamasiga nisbatan kamroq kuchaytiruv ma'nosini anglatadi, masalan:

Der Saal ist ja **so** groß! Das Wetter ist ja so warm!

Gar yuklamasi belgining ortiq darajada ekanini ifodalaydi va u „*mutlaqo*“, „*hech*“ ma'nolarida ishlatiladi, masalan:

Daran ist **gar** nicht zu denken: „Hat auch **gar** kein Geld gekostet“, bemerkte trocken Herr Grätjens (Th. Mann, „Buddenbrooks“).

Gar yuklamasi sifat yoki ravish, ot yoki otlashgan olmoshlar bilan ham birga ishlatiladi, masalan: *gar alt, so alt, sehr alt; gar selbst, sogar selbst*.

Ja, doch yuklamalari ham kuchaytiruv yuklamalaridan hisoblanadi. Qiyoslang:

Er war **ja** damit einverstanden. Er war **doch** damit einverstanden. „Aber was kann ich denn machen? Wir können ihm **doch** nicht auf die Straße setzen“. (W. Bredel, Die Enkel).

Ja kuchaytiruv yuklamasi umumiy tasdiqlash ma'nosini anglatuvchi *ja* so'ziga nisbatan omonim xarakteriga ega, qiyoslang:

Ich bin **ja** damit einverstanden. Bist du damit einverstanden?

- **Ja**.

Doch yuklamasi inkor ma'nodagi so'roq gapga ijobiy javob berish yoki unga e'tiroz bildirish kerak bo'lganda qo'llanadi. Masalan:

„Hast du kein Telephon?“ – „**Doch!**“ Und hast du dir nichts zum Neuen Jahr gewünscht?!“ – „**Doch!**“. (J.Becher, Abschied). Er hat doch Ferien, Diederich!... (Th. Mann, „Buddenbrooks“).

Nemis tilida *selbst* so'zi ham olmosh, ham yuklama ma'nosida qo'llanadi. Uning qaysi ma'noda kelganligi *selbst* so'zining gapdagi o'rniga qarab belgilanadi.

Agar *selbst* so'zi birga kelgan so'zdan keyin qo'llansa, olmosh hisoblanadi, undan oldin qo'llansa, yuklama vazifasida bo'ladi, qiyoslang:

er **selbst** – u **o'zi** (olmosh);

selbst er – hatto u **o'zi** (yuklama).

Sogar yuklamasi ham kuchaytiruv ma'nosini ifoda etadi. Masalan:

Er hatte **sogar** den Kopf ein wenig auf die Seite gelegt. (Th. Mann, „Buddenbrooks“).

Wenn Bochow etwas als richtig erkannt hatte, dann setzte er es in stiller Beharrlichkeit durch manchmal **sogar** ohne Wissen der Genossen. (B. Apitz, „Nackt unter Wölfen“.)

Mahlmann stieß **sogar** höhnisch den Atem aus. (H.Mann, „Der Untertan“.)

4) **Ta'kid yuklamalari:** *besonders, doch, eben, erst, gerade, ja, nur, zumal.*

5) **Susaytiruv yuklamalari:** *etwas, ganz, nicht eben, nicht einmal, nicht gerade, recht, schon, zwar.*

6) **Umumlashtiruvchi yuklamalar:** *auch, ganz und gar, immer, nur, überhaupt.*

7) **Payt ma'nosini bildiruvchi yuklamalar:** *bereits, erst, noch, schon.*

8) **To'ldiruvchi yuklamalar:** *auch, beispielweise, noch, so, überhaupt.*

9) Inkor yuklamasi: *nicht, nicht einmal* yuklamasi istalgan gap bo'lagini inkor etishda qo'llaniladi.

Wir arbeiten heute nicht **hier**. Es ist **nicht** kalt. Ich schreibe **nicht**.

Und der alte Göbel, der nicht einmal recht weiß, um was es sich hier handelt, sagt wie immer: „Ja, ja das ist der Schrei der Gerechtigkeit“. (P.Körner – Schröder.)

10) Bog'lovchi yuklamalar: *auch, noch, ebenfalls, gleichfalls* va boshqalar.

„Sie haben **auch noch** Ihre Mutter, nicht? Dann können Sie sich freuen. Meine ist längs tot. Ich werde wohl **auch** nicht lange leben. Man hat so Ahnungen“, - und sie lächelte wehmütig und entschuldigend. (H.Mann, „Der Untertan“).

Sub'yektiv xususiyatiga ko'ra:

1) Qayg'urish va shubhani ifodalovchi yuklamalar: *auch, bloß, doch, nicht, überhaupt.*

2) Ajablanish, xijolat va g'azablanishni ifodalovchi yuklamalar: *aber, doch, ja.*

3) Xohish va talabni ifodalovchi yuklamalar: *doch, erst, ja, nur, schon.*

4) Aniqlov yuklamalari: *gerade, eben, nämlich, zwar.*

5) Modal yuklamalari: *nur, doch, etwa, mal, denn, aber, ja, gar, schon, nein.*

6) Mantiqiy yuklamalar: *abermals, ausgerechnet, bereits, ebenfalls, ebenso, genauso, gleichfalls, ebenso, genauso, gleichfalls, lediglich, nicht einmal, nochmals, selber, sogar.*

Yuqorida ko'rsatilgan yuklamalar turidan tashqari yana turli ma'nolarni anglatadigan yuklamalar ham mavjud.

Aber(aber bog'lovchisiga omonim hisoblangan) kuchaytiruv – xitob yuklamasi his-hayajonni anglatadi, masalan:

Wie kannst du **aber** so etwas sagen? (g'azab ma'nosi anglatilmoqda.)

Ist der **aber** pünktlich! (zavq ma'nosi ifodalanmoqda.)

Denn kuchaytiruv – so'roq yuklamasi *hali-ya, nahotki, shundaymi* ma'nolarida qo'llaniladi, qiyoslang:

Ist er **denn** noch nicht da? Hast du **denn** das Buch nicht gelesen?

Etwa yuklamasi taxmin, gumon ma'nosini anglatadi, masalan:

Etwa zehn Kilometer gingen wir zu Fuß. **Etwa** dreißig Jahre.

Mal yuklamasi buyurish, undash ma'nosini anglatib, buyruq gaplarda qo'llanadi, masalan:

Komm **mal** her! Sagen Sie **mal**!

Ja (ha, ha shunday) yuklamasi tasdiqni kuchaytirish uchun qo'llaniladi:

Er wollte **ja** gern Arzt werden.

Quyidagi yuklamalar grammatik funktsiyalarni bajaradi:

Zu yuklamasi ko'pincha infinitiv bilan yoki sifatdosh I bilan qo'llanadi:

Er versteht immer so klug **zu** antworten.

Die **zu** verbessernden Fehler.

Es yuklamasi mustaqil gaplarda gap boshidagi fe'l oldidan qo'llanadi: **Es** wehten kalte Winde im Frühling.

Es yuklama vazifasida ishlatilganda boshqa yuklamalar kabi ma'lum ma'noga ega bo'lganligi sababli **es** yuklamasi tarjima qilinmaydi. Masalan: Es lebe der Weltfrieden! **Es** fiel ein Schuß.

Es yuklamasining o'zbek tilida ekvivalenti yo'q.

Zu yuklamasi esa yuqorida ko'rsatib o'tilgan kuchaytiruv funktsiyada tarjima qilinsa, infinitiv bilan ishlatilganda tarjima qilinmaydi, masalan:

Er bemüht sich, mir **zu** helfen. Ich habe heute noch **zu** arbeiten.

«NICHT» (EMAS) INKOR YUKLAMASINING QO'LLANILISHI

Nemis tilida inkor ma'nosida qo'llanuvchi yuklamalar quyidagilar: nicht, nie, nein, nichts, niemand, kein va boshqalar.

Nicht inkor yuklamasi yordamida fe'l so'z turkumini, aniq artikl bilan qo'llangan ot so'z turkumi, egalik va ko'rsatish olmoshlari, sifat, sifatdosh hamda olmoshlarni inkor etish mumkin. Nicht inkor yuklamasi gapda o'zi inkor etayotgan so'zdan oldin qo'llanmaydi. Fe'l so'z turkumi bundan mustasno. Nicht inkor so'zi agar gapda fe'l so'z turkumini inkor etib kelsa, fe'ldan oldin qo'llanadi. Agar gapda fe'l ajraladigan old qo'shimchasisiz qo'llansa (gapda sodda kesim vazifasida), u holda nicht inkor yuklamasi gapning so'ngida qo'llanadi, Masalan:

Wassermelonen esse ich nicht. — (bu yerda sodda kesim inkor qilinyapti).

Agar gapda ajraladigan old qo'shimchali fe'llar qo'llansa, nicht inkor yuklamasi old qo'shimcha (präfix) dan oldin qo'llanadi, masalan:

Am bevorstehenden Wettkampf nimmt er nicht teil. — U yaqinda bo'ladigan musobaqada qatnashmoqchi emas..

Agar gapda fe'llar qo'shma zamon shaklida modal konstruksiyalar bilan qo'llansa, ushbu holatda ham nicht inkor yuklamasi fe'ldan oldin qo'llanadi, (Infinitiv, Partizip II,), masalan:

Ich will dieses furchtbare Kleid nicht anziehen. – Men bu jozibasiz kiyimni kiymoqchi emasman.

Meine Schwester hat diese Nachricht noch nicht gehört. – Opam bu yangilikni halicha eshitgani yo'q.

Predlog bilan kelgan otni inkor qilishda nicht yuklamasi predlogdan oldin qo'llaniladi va ot so'z turkumini inkor qiladi, masalan:

Er ist nicht nach Tokio abgeflogen. Er ist nach Hongkong geflogen. – U Tokioga emas Gongkonga uchyapti.

U Tokioga emas, Gonkongga uchyapti gapida inkor qilinayotgan bo'lak, Tokio so'zidan oldin nicht yuklamasi kelib, o'zi alohida propozisiya ifodalab kelmoqda. Shuning uchun bu gapda ikki propozisiya bor: 1) U Gongkongga ketdi. 2) U Tokoiga ketishi kerak edi, ketmadi. Ikkinchi propozisiya nicht (emas) yuklamasining presuppozisiyasi orqali tushunilmoqda. Bu gapda noto'g'ri tasavvur ma'nosidagi presuppozisiya anglashilgan.

Payt ravishi bo'lib kelgan holni inkor qilishda nicht inkor yuklamasi holdan oldin qo'llanadi, masalan: Willst du ihn unbedingt heute besuchen? – Nein, ich will ihn nicht unbedingt heute besuchen. (Nein, nicht unbedingt heute). – Sen unikiga aynan bugun bormoqchimisani? – Yo'q, men unikiga aynan bugun bormoqchi emasman. (Yo'q, aynan bugun emas). Ushbu gapda payt ravishi inkor qilinish bilan birga ish-harakat bajaruvchisining xohishi aynan bugun emas boshqa kunda amalga oshishiga ishora qilinyapti.

Nicht (emas) yuklamasi zidlangan hollar bilan birgalikda kelib, hol qarab turli ma'nolarni anglatadi va presuppozisiyani yuzaga keltiradi. Presuppozisiya ham nicht yuklamasining qanday holga bog'lanib kelishiga qarab turli ma'nolarni ifodalaydi.

Zidlangan ravish hollari nicht yuklamasi bilan kelganda, zidlangan ravish hollari qanday so'z turkumi bilan yoki turli ko'makchilar vositasida ifodalangan bo'lmasin, albatta presuppozisiya anglashiladi. M.: “Willst du ihn unbedingt heute besuchen? – Nein, ich will ihn nicht unbedingt heute besuchen. (Nein, nicht unbedingt heute). – Sen unikiga aynan bugun bormoqchimisani? – Yo'q, men unikiga aynan bugun bormoqchi emasman. (Yo'q, aynan bugun emas).” gapida inkor yuklamasi ravish holdan oldin kelib, ta'kid ma'nosini bildirayapti va "bu ishni bugun emas boshqa kunga amalga oshirishga xohishi borligini tasdiqlash " presuppozisiyasiga ishora qilayapti. Agar gapning biror bo'lagini inkor qilish lozim bo'lsa, nicht inkor yuklamasi o'zi inkor qilayotgan gap bo'lagidan oldin qo'llaniladi. Ba'zi hollarda bunday inkorlarda alternative inkor so'zlaridan foydalanishga to'g'ri keladi. Inkorning alternativ variantini ko'rsatish uchun “nicht..., sondern”(не...,а)

konstruksiyasidan foydalanamiz, masalan:

Dein Pulli liegt nicht auf dem Stuhl. Er liegt unter deinem Bett. – Sening pullovering stul ustida emas. U krovating ostida yotibdi.

Dein Pulli liegt nicht im Schrank, sondern unter dem Sofa. – Sening pullovering shkafda emas, balki divan tagida yotibdi.

”Sening ustki kiyiming shkaf ichida emas, balki divanning tagida” gapida inkor qilinayotgan bo’lak, shkaf so’zidan oldin nicht yuklamasi kelib, o’zi alohida propozisiya ifodalab kelmoqda.

Shuning uchun bu gapda ikki propozisiya bor: 1) Kiyim divanning tagida. 2) U shkafning ichida bo’lishi kerak edi, afsuski u yerda emas.. Ikkinchi propozisiya nicht (emas) yuklamasining presuppozisiyasi orqali tushunilmoqda.

Agar nicht inkor yuklamasi sifat yoki sifatdoshni inkor qilib kelsa, nicht yuklamasi ulardan oldin qo’llanadi, masalan:

Unser nicht sehr höflicher Begleiter ist plötzlich verschwunden. – Biz uchun uncha qadrli bo’lmagan yo’lboshlovchi to’satdan g’oyib bo’ldi.

Das Klima in eurer Gegend ist nicht schön. — Sizning yurtigizning iqlimi yaxshi emas. Warum ziehst du immer die nicht gebügelten Kleider an? – Nima uchun har doim dazmollanmagan kiyim kiyasan?

Nemis tilida nicht inkor yuklamasi o’z sinonimlariga ega bo’lsada, gapda ularning qo’llanilish o’rni va vazifasi turlicha talqin etiladi. Nein inkor so’zi umumiy ma’nodagi inkorni ifodalaydi. Biror bir gap bo’lagini nein inkor yuklamasi inkor etib kela olmaydi. Nein inkor yuklamasi qisqa javob talab qiluvchi so’roq gaplarga javob berishda qo’llaniladi, masalan:

Bist du ein Dolmetscher? — Nein. (Ich bin kein Dolmetscher). – Tarjimonmisan? – Yo’q. (Tarjimon emasman). Ushbu gapdagi qisqa “yo’q” javobi orqali shaxsning boshqa kasb egasi ekanligi anglashiladi. Ba’zan emas yuklamasi shaxs-son qo’shimchalarini olib ham kela oladi. M.: Bu odam tarjimon emas gapida "bu odam tarjimon deb o’ylangan" presuppozisiyasiga ishora qilinayapti. *Ist er mit einem Schnellzug angekommen? – Nein. (Er ist nicht mit einem Schnellzug angekommen).*

– U tezyurar poezdida keldimi? – Yo’q. (U tezyurar poyezdida emas, boshqa transport vositasida keldi). Ushbu gapdagi birgina inkor javobning o’zi ish-harakatni boshqa transport vositasi orqali bajarilganini ifodalaydi.

NIEMAND = hech kim inkor yuklamasi gumon olmoshi jemand (kimdir) formasini inkor etishda qo’llaniladi, masalan:

Hat jemand meinen neuen Kugelschreiber gesehen? – Nein, niemand hat deinen neuen Kugelschreiber gesehen. – Kimdir meni yangi sharikli ruchkamni ko’rmadimi? – Yo’q, hech kim sening yangi sharikli ruchkangni ko’rmadi.

NICHTS = hech narsa inkor so’zi predmetning sanog’iga bog’liq so’zlarni inkor qiladi, masalan:

Habt ihr wenigstens etwas behalten? – Nein, wir haben nichts behalten. – Biror narsani eslab qoldingizmi? – Yo’q, hech narsani eslab qolmadik.

NIRGENDS = NIRGENDWO = hech qayerda inkor so’zi o’rin holini inkor qiladi, masalan:

Wo sind sie am letzten Wochenende gewesen? – Sie sind nirgends gewesen. – O’tgan hafta ular qayerda edilar? – Ular hech qayerda yo’q edilar.

NIE = NIEMALS = hech qachon vaqt (payt)ni inkor etishda qo’llaniladi, masalan: Wir sind noch nie in Australien gewesen. – Biz hali hech qachon Avstraliyada bo’lmaganmiz.

Nie inkor yuklamasining boshqa inkor yuklamalaridan ajralib turuvchi xususiyati shundaki, bitta inkor so’z orqali bir nechta inkor ma’nosi yuzaga keladi. Bu holat boshqa tillarda kuzatilmaydi. Masalan:

Meine Grossmutter ist nie im Ausland gewesen. – Buvim hech qachon chet elda bo’lmagan (nemis tilida bitta inkor so’z — o’zbek tilida ikkita). Gestern hast du keine Zeitungen gelesen. – Kecha sen hech qanday gazeta o’qimading (nemis tilida bitta inkor so’z — o’zbek tilida ikkita). Nemis tilida inkor shaklining bog’lovchili konstruksiyalari mavjudki, ular gapda takroriy ma’no ifoda etadi.

«weder... noch» — «na... na»:

Heute habe ich weder Fenster im Kinderzimmer noch die in unserem Schlafzimmer gewaschen. — Bugun men na bolalar xonasining, na yotoqxonaning derzasini yuvdim. Nemis tilidagi "weder... noch" bog'lovchi konstruksiyasi o'zbek tilidagi *na-na* teng bog'lovchisiga mos keladi.

Chunonchi, o'zbek tilida *na-na* yordamchisi teng bog'lovchilarning bir turi sifatida inkor bog'lovchisi sanalib kelgan. G'.Abdurahmonov esa uni inkor bog'lovchisi deb atash bilan birga, yuklamalik xususiyatiga ham egaligini ko'rsatadi. Haqiqatan ham, bu yordamchi ham bog'lovchilik, ham yuklamalik vazifasini bajaradi. Bog'lovchi vazifasida kelganda ayrim teng huquqli bo'lak (komponent)larga inkor ma'nosini berib, ularni bog'laydi: *Na so'zlarida ma'no bor, na ishlarida hayo.* (Oybek). Bu yordamchi so'z yuklama vazifasini bajarib, mazmunidan inkor anglashilgan gaplar tarkibida keladi va inkor ma'nosini ko'rsatadi: *Raisning erkatoiy o'g'li na o'qiydi, na biror joyda ishlaydi.*

«ohne... zu» — «... masdan, ...may»:

Heute habe ich Fleisch überbacken, ohne es eingespickt zu haben. – Men bugun go'shtni orasiga yog' tiqmasdan pishirdim.

Yuqorida ko'rsatilgan inkor so'zlari bilan cheklanib qolmasdan, boshqa tillarda mavjud bo'lgani kabi nemis tilida ham inkor suffikslari mavjud bo'lib ular xuddi inkor so'z yuklamalari kabi gapga inkor ma'nosini bera oladi. Masalan:

Inkor ma'nosini beruvchi suffikslar:

-frei: «...siz — einwandfrei - nuqsonsiz»

-los: «...siz — farblos- rangsiz »

Inkor ma'nosini beruvchi prefikslar:

un-: «no... – unregelmässig- noodatiy»

de-: « die Montage- die Demontage; tuzish-buzish»

miss-: « trauen — misstrauen; ishonmoq- shubhalanmoq»

2.3 Modallikni ifodalovchi yuklamalar

Tilda mantiqdan kirib kelgan modallik kategoriyasini ifodalovchi asosiy vositalardan biri bu fe'lning mayllar deb yuritilgani. Bu usul esa modallikni morfologik ifodalovchi asosiy vositadir. Shu bilan bir qatorda leksik- semantik so'zlar majmuasi borki, bu so'zlar modal so'zlar deb yuritiladi. Modal so'zlar ayrim hollarda gap modalligini ochuvchi uslubiy qatlam vazifasini o'taydilar. Lekin modal so'zlar mustaqil so'z turkumini hosil qiladimi yoki alohida yordamchi so'zlar turkumini hosil qiladimi degan savol hozirgi kunda tilshunoslar oldidagi dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Ushbu savolga javoblar ham turlicha. Ayrim tilshunoslarning fikricha, modal so'zlar "gapdan tashqarida" bo'ladi, faqat unga "bitishadi". Boshqa so'zlar bilan aloqada bo'lmay, "ular gap bo'lagi bo'lmaydi, hatto yordamchi ham bo'lmaydi" deb qaraydilar. N. K. Dmitriyev esa boshqird tilidagi modal so'zlarni alohida so'z turkumiga emas, balki alohida so'zlar majmuasi va yuklamalar orasidagi bir turkum so'zlardir deb qarasa, A.N. Kononov, A.N. Baskakov va boshqalar yuklamalar kabi modal so'zlarni alohida yordamchi so'z turkumi deb ajratmaydilar. Ayrim turkshunoslar modal so'zlarni alohida yordamchi so'z turkumi deb ta'kidlaydilar.

Boshqa bir guruh tilshunoslar esa yordamchi so'z turkumlari bilan bir qatorda modal so'z turkumlari deb ajratadilar va bu turkumga yuklamalar bilan modal so'zlarni kiritadilar.

Rus tilshunosligida esa modal so'zlarni ravishlar tarkibida yoki bog'lovchilar tarkibida tahlil qilingan. Bu xildagi qarashlar uzoq vaqt modal so'zlarni alohida bir leksik – semantik birlik sifatida qarashlarning rivojlanishiga to'sqinlik qilib keldi.

Modal so'zlarni alohida kategoriya sifatida talqin etish bilimini V. V. Vinogradov ishlab chiqdi. U modal so'zlarning o'ziga xos

xususiyatlari, grammatik mazmun – mohiyati, kelib chiqishi, lug‘aviy tarkibi, vazifalari, boshqa turkum so‘zlar bilan munosabati kabilarni ko‘rsatib berdi. Lekin V. V. Vinogradovning modal so‘zlar to‘g‘risidagi qarashlari to‘liq va tom ma’noda o‘z ifodasini topmadi. Shu bilan bir qatorda S. I. Abakumovning modal so‘zlarning alohida so‘z turkumi sifatida alohida e’tirof etishi hamda I. I. Menzaninoning kirish (modal) so‘zlarni alohida so‘z turkumi deb ajratish to‘g‘risidagi dadil konsepsiyasi ham o‘z rivojini topmadi.

Morfologik belgilariga ko‘ra modal so‘zlar boshqa yordamchi so‘z turkumiga kiruvchi: ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama, undov, taqlid so‘zlardan farq qilmaydi. Chunki modal so‘zlar ham yordamchi so‘z turkumlari kabi o‘zgarmas, so‘z yasash, so‘z o‘zgarish affikslariga ega emas.

Ularni bir – biriga o‘xshash tomonlarining boisi ularning tarixi bilan bog‘liqdir, chunki modal so‘zlar turli xil mustaqil so‘z turkumlaridan kelib chiqqan. Bunday tarixiy jarayon, ya’ni so‘zlarning leksik grammatik o‘zgarishi natijasida ayrim modal so‘zlar to‘laligicha o‘zining boshlang‘ich nuqtasidan tamomila uzilib chiqib ketganki, ular faqat modal ma’nolarni ifodalaydi, boshqalari esa to‘lig‘icha modal so‘zlar qatoriga o‘tib ketmagan shuning uchun ular ayrim hollarda modal ma’nolarni ifodalasa, boshqa hollarda ma’lum gap bo‘lagi vazifasini bajaradi.

Modallik tushunchasi ustida yetuk tilshunos olimlar V.V.Vinogradov, V.G.Admoni, I.R.Galperin, N.Yu.Shvedova, Sh.Ball va boshqalar turli tadqiqotlar olib borishgan. Ularning har biri ushbu tushunchaga aniqlik kiritishgan va umumiy aytganda modallik bu- modal so‘zlar uslubi doirasida ikki xil ottenkani ya’ni so‘zlovchi fikrining voqelikka yo salbiy, yoki ijobiy munosabatini anglatuvchi so‘zlar turkumidir.

Modallik (Die Modalität). So'zlovchining gap orqali voqea – hodisa, belgi – hususiyatning mavjudligi, qaysi zamonda ro'y berishi, real yoki noreallik, xohish yoki norozilik kabi munosabatni ifodalashi **modallikdir**.

Hozirgi nemis tilida gapdagi modallikning ikki turi bor:

1. Fikrning aniqligini anglatuvchi modallik (**Modalität der Wirklichkeit**). Modallikning bu turi gapda bayon etilgan fikrning real (aniq) ligini tasdiqlash yoki inkor etishda qo'llanadi: *Sein Gesicht wird schwarz von dem Schatten. Mir gefiel das gar nicht.* (A.Seghers).

2. Fikrning noaniq ekanligini anglatuvchi modallik (**Modalität der Nichtwirklichkeit**). Bunday modallik bilan bayon qilingan fikr shunha, gumon, taxmin, real (amalga oshadigan) yoki noreal (amalga oshmaydigan) ma'noni ifoda etish zarur bo'lganida qo'llanadi: *Sie hätte wahrscheinlich Crisanta bald ausquartiert. Sie ware mit ihm in den Krieg marschiert, in Demonstrationen, in Prozessionen.* (A.Seghers).

Hozirgi o'zbek tilida ham gapdagi modallikning ikki turi bor:

1. Fikrning aniqligini bildiruvchi modallik.

Modallikning bu turi gapdagi fikrning voqelikka, real holatga bo'lgan munosabatni, so'zlovchining shu jihatdan sub'yektiv munosabatini modallik (reallik) bilan, zamon va shaxs bilan bog'laydi. **Masalan:** *Biz planni bajardik* gapida shu gapdan anglashilgan fikrning voqelikka mos kelishini ifodalaydi – so'zlovchi bu fakti real deb biladi (modallik), bu narsa zamon (o'tgan zamon) va shaxs (birinchi shaxs) kategoriyalarini ham o'z ichiga olgan.

2. Fikrning noaniq ekanligini anglatuvchi modallik.

Bunda modallik gap mundarijasining voqelikka bo'lgan munosabatida aytilayotgan fikrning noreal holatga tegishli ekanligini ifoda etadi. **Masalan:** *Ertaga, balki, yomg'ir yog'ar* misolida hodisa taxmin tusida bayon qilingan, bundagi zamon va shaxs ham avvalgidan boshqacha. Demak, predikativlik modallik, zamon va shaxs-son kategoriyalari bilan bog'liq, shularni o'z ichiga oladi.

Intonatsion tugallik (Die intonatorische Abgeschlossenheit). So'zlarning o'zaro qo'shilib, gap tuzilishini, gapning tamom bo'lganligini ifoda etuvchi hamda gaplarning bir-biridan farqlovchi vositalardan biri **intonatsion tugallikdir.**

O'zbek tilida ham intonatsion tugallik mavjud. Intonatsiya gapni, nutqni fonetik jihatdan shakllantiradi, grammatik-fikriy tugallikni ko'rsatadi. U so'z birikmasining yoki ayrim so'zning gap bo'lganligini ko'rsatadi. Bu tipdagi intonatsiya so'z birikmasi bilan gapni farqlaydigan belgilardan biri hisoblanadi.

Nisbiy tugallik (Die relative inhaltliche Abgeschlossenheit) gapdagi fikrni nisbiy tugallikka ega bo'lganligini ko'rsatadi. Bir gap hajmida bayon etiladigan fikr umum fikrimizning bir qisminigina tashkil qiladi.

Intonatsiyaning tugalligi yoki uning nisbiy tugalligi gapda bayon etilgan fikrning to'la yoki qisman ifoda etilishiga bog'liq. Ma'lum so'zlar bog'lamasi bir holatda gap sifatida ifoda etilsa, ayni shu so'zlar bog'lamasi ikkinchi holatda gapning bir qismi bo'lib keladi. **Masalan: Wo warst du? –Im Institut (gap); Im Institut ... (gapning bir qismi)** kabi.

Emotsional neytral gapda yuklama qo'llanadi. Bu uning undov gapdan farq qiladigan belgilaridan biri hisoblanadi:

Was machst du denn?

Sie ruhig!

Ich bin doch (ja) hier!

So'zlovchi undov gaplar yordamida o'zining voqea-hodisaga bo'lgan emotsional munosabatini – **xursandlik, tantana, qo'rqinch, taajjub** kabi ma'nolarni anglatadi. Emotsional munosabatlar ijobiy yoki salbiy bo'ladi. Hursandlik, zavqlanish, tantana, hayratlanish kabi ma'nolar ijobiy emotsiyani ifoda etadi:

“Hobby!” schrie Maud. “Wie kannst du dich unterstehen!” “Ah, siehst du!” erwiderte er und drückte ihr dankbar die Hand. (B.Kellermann).

G'azablanish, qayg'ulanish, hayron bo'lish, qo'rqinch, vahima kabilar salbiy emotsiyani anglatadi:

“Frieda ist sehr krank!” (w.Bredel). “Deine Kritik besteht zu Recht!”. Ah, da ist er wohl Hutmacher!” (H.Kant). Das ist schlimmer! Wir haben einen Vogel geschlossen! “Er hat es selbst gesagt!” (F.Fühmann).

“Ach so, ja geben Sie mir doch bitte noch ein Viertelpfund Zungenwurst, aber schneiden Sie recht dünn!” (K.Grünberg).

Nemis tilida yaratilgan asarlar mutolaasi jarayonida modallik tushunchasidan bexabar kitobxon birmuncha qiyinchiliklarga duch kelishi aniq. Sababi modal yuklamalar gapga kuchaytiruv mazmunini berish uchun xizmat qiladi.

Yuklamalar modallikni ifodalash uchun xizmat qiladigan muhim leksik vositalardan biridir.

Yuklamalar ham predloglar va bog'lovchilar singari gap bo'lagi vazifasida kela olmaydi hamda shu bilan birga morfologik jihatdan o'zgarmaydi. Yuklamalar ikkiga bo'linadi: modal yuklamalar (die modalen Partikeln), Grammatik yuklamalar(die grammatischen Partikeln). Modal yuklamalar quyidagilar; sogar, selbst, nur, doch, denn, ja, gar va boshqalar.

Modal yuklamalar kuchaytiruv ottenkasiga ega. Modal yuklamalar gap bo'laklari orasida so'z yoki so'z birikmasi bo'lib, gap bo'laklari ma'nosining orttirilishi yoki chegaralanishi ma'nosini ifoda etadi. Masalan:

Er schloss **sogar** die Augen.

Bu gapda **sogar** yuklamasi ma'noni kuchaytirish uchun xizmat qiladi.

Modal yuklamalar ta'kid ma'nosini, gumon, buyurish, undash ma'nolarini, tasdiqnichaytirish ma'nosini ifodalab keladi.

Yuklamalar ravish (so, nur, schon, eben, bloss, nun) dan, olmosh(es, selbst, man) dan va bog'lovchi (denn, doch) dan kelib chiqqan. Shuning uchun ular o'z funktsiyalarida ham tez-tez uchrab turadi.

Keyingi yillarda modal yuklamalarga qiziqish tilshunoslarning diqqat markazidadir. Modal yuklamalar, ayniqsa, og'zaki nutqda ko'p qollanadi. Bu yuklamalar so'roqqa javob bo'la olmaydi. Ular ko'pincha gap funktsiyalarini yoki fikrlarni bog'laydi.

Yuklamalar sostavining ko'makchi va bog'lovchi-yordamchi so'zlariga nisbatan murakkab ekanligi ushbu til birliklari umumiy kategorial belgisining aniqlashida ham aks etadi.

Materiallarga tayangan holda yuklamalarga quyidagicha ta'rif beriladi:

Yuklamalar so'zlovchi tomonidan gapda (kontekstga bog'liq holda), qo'shimcha, ba'zan, yangi informatsiyani bayon qilish va turli tipdagi modal, emotsional, ekspressiv qiymatni ifodalash uchun qo'llanuvchi hamda tildagi ayrim leksik, morfologik, sintaktik birliklarning organik konstruktiv elementi vazifasini bajaruvchi yordamchi so'zlardir.

O.Bozorov yuklama kategoriyasini uning umumgrammatik funktsiyasi nuqtai nazaridan quyidagi guruhlariga ajratgan.¹

1. Gap bo'laklari va gaplarni kontekst asosida ta'kidlovchi-ajratuvchi yuklamalar.
2. Gap turini va mazmun aspektini hosil qiluvchi yuklamalar.
3. Gapdagi modallik va emotsional-ekspressivlikni ifodalovchi hamda ayrim tipdagi forma yasashlari uchun xizmat qiluvchi yuklamalar.
4. So'z yasash xarakteriga ega bo'lgan yuklamalar.

Darhaqiqat, yuklamalar nutqda matn bilan bog'liq serqirra, nozik modal ma'nolarni ifodalay oladi va bu bilan subyektiv modallikning milliy jozibasini o'zida to'la aks ettiradi.

¹ Bazarov O. O'zbek tilining yuklama kategoriyasi. "O'zbek tili va adabiyoti". 1977, 2-son, 27-bet

Demak, soʻzlovchining oʻz fikriga boʻlgan munosabatini bildiradigan soʻzlar modal soʻzlar ekan, oʻzbek tilida modal soʻzlar tasnifiga oid turli xil qarashlar mavjud. Jumladan, biz quyida oʻzbek tilida mavjud modal soʻzlarning baʼzi tasniflarini keltirib oʻtmoqchimiz. Bob yakunida ular orasidan qaysi biri izchil va mukammalligi toʻgʻrisida muayyan xulosalarga kelish uchun ham, avvalo bu tasniflarni yaxshiroq oʻrganib chiqishimiz, kamchilik va yutuqlarini tahlil qilishimiz joiz boʻladi. Avvalambor, modal soʻzlar tilshunoslikda ikki xil jihatdan tasnif qilinishi mumkin. Birinchisi, modal soʻzlarning alohida olingan soʻz turkumi sifatida morfologiya tarkibida oʻrganilishi boʻlsa, ikkinchisi modal soʻzlarning gap tarkibida gap boʻlaklari bilan munosabatini birinchi oʻringa qoʻyib oʻrganuvchi kiritmalar sifatida sintaksis tarkibida.

Har ikkala nuqtayi-nazardan ham, modal soʻzlar oʻz mohiyatini, shakl – u shamoyilini yoʻqotmaydi. Ular kiritmalar tarkibida oʻrganilganda modal soʻzlik xususiyatini, alohida soʻz turkumi sifatida oʻrganilganda esa kirish soʻzlik xususiyatini yoʻqotib qoʻymaydi. Bu fikrni tilshunoslikda mavjud alohida soʻz turkumlarining qolgan qismlari - undov va taqlid soʻzlarga nisbatan ham qoʻllash mumkin. Modal soʻzlar tasnifi va tarkibi masalasi tilshunosligimizda eng bahstlab masalalardan biri sanaladi. Shu boisdan ham biz bu masalani alohida bobda koʻrib chiqishga qaror qildik.

Modal soʻzlarning semantik tasnifi anʼanaviy va formal tilshunoslikda muayyan tafovutlarga ega sanaladi. Chunonchi, anʼanaviy tilshunoslikda modallar quyidagicha tasniflanadi:

Tasdiqni bildiruvchi modal soʻzlar: *albatta, haqiqatan, darhaqiqat, soʻzsiz, shubhasiz;*

Taxmin va gumonni bildiruvchi modal soʻzlar: *ehtimol, chamasi, aftidan, shekilli*;

Afsus va ajablanishni bildiruvchi modal soʻzlar: *attang, afsuski, ajabo*;

Fikrning tartibini bildiruvchi modal soʻzlar: *avvalo, jumladan, masalan*;

Umumlashtiruvchi, yakunlashtiruvchi modal soʻzlar: *xullas, demak, umuman*.

Koʻrinib turibdiki, mazkur tasnif ancha – muncha kamchiliklarga ega. Qolaversa, unda izchillik va mukammallik yetishmaydi. Anʼanaviy tilshunoslikka tegishli boʻlgan yana bir darslikda esa bu tasnifga qoʻshimcha yana ikki xil maʼno turi qoʻshiladi. Bular: fikrning kimga qarashli ekanligini bildiruvchi modal soʻzlar [*menimcha, uning taʼkidlashicha, fikri ojizimcha, aytishlaricha*] va soʻzlovchining voqelikka achinish munosabatini bildiruvchi modal soʻzlar [*afsuski, attang*] kabi.

Birinchi tasnifda biroz chalkashlikka yoʻl qoʻyilgandek, nazarimda. Chunki bu tasnifda asli undov soʻzlar tarkibida oʻrganilishi lozim boʻlgan *ajabo* undov soʻzi bu oʻrinda modal soʻzlar tarkibiga kiritilmoqda. Bu soʻzning aynan modal soʻzmi yo undov soʻzmi ekanligini quyidagi misollar orqali aniqlashga harakat qilib koʻramiz:

Ajabo, tush degan narsa qiziq-da,

Oʻlib qolganmishman tushda nogahon. (Rasul Hamzatovdan).

Ajabo, dunyoning ishlari qiziq – da! (Oʻtkir Hoshimovdan).

Vo ajab, koʻzlarimga tor boʻldi bu dunyo, sening soʻzlaringni eshitib. (qoʻshiq matnidan). Bizga maʼlumki, alohida olingan soʻz turkumlari oʻzaro bir – biriga yaqin maʼno va funksiyalarni bajaradi. Xususan, undov va modal soʻzlar bu borada juda muzokarali. Chunki ularning har ikkalasi ham soʻzlovchining oʻz fikriga hissiy munosabatini ifodalaydi. Ayni choqda ham *ajabo* soʻzining modal yoki

undovligi haqidagi ikkilanishimiz ham aynan ularning o'xshashligi boisidan kelib chiqqandir. Keltirilgan misollarimizning birinchi va ikkinchisida bu so'z shubhasiz, modal so'z vazifasini bajargan. Boisi, har ikkala gapda ham *ajabo* so'zi so'zlovchining voqelikka hissiy bahosidan ko'ra ko'proq ajablanish munosabatini ifodalayapti. Uchinchi gapda esa aksincha *vo ajab* so'zi so'zlovchi fikriga ajablanishdan ko'ra ko'proq hissiy ta'sirchanlik munosabatini yuklamoqda. Shuning uchun bu gapda *vo ajab* so'zi undov so'z vazifasini bajarmoqda. Demak, *ajabo* modal so'zi asli mustaqil so'z turkumi bo'lgan – sifatdan o'sib chiqqan, keyinroq modal so'zlik xususiyatini namoyon qilib modal so'z tarkibiga kiritilgan, yana ham keyinroq esa hissiy bo'yoqdorlik xususiyati bilan undov so'zlar tarkibiga qo'shilgan. Demak, biz bu so'zni nafaqat modal so'z sifatida, balki vazifadosh undov so'z sifatida ham qabul qilsak bo'ladi.

An'anaviy tilshunoslikda modal so'zlarning nisbatan mukammal va izchilroq tasnifi sifatida quyidagi tasnifni ko'rsatishimiz mumkin:

Modal so'zlarning ma'no jihatdan turlari:

1. Fikrning aniqligini ifodalaydigan modal so'zlar:

1) fikrning rostligi tasdiqlanadi: *darhaqiqat, haqiqatan, haqiqatda, filhaqiqat;*

2) fikrning qat'iyligi ta'kidlanadi: *shubhasiz, shaksiz, so'zsiz;*

3) fikrga ishonchni bildiradi: *albatta;*

4) ifodalanayotgan voqelikning yuzaga kelishi tabiiy ekanligini bildiradi: *tabiiy, o'z – o'zidan;*

5) fikrning chinligi eslatiladi: *to'g'ri, hoynahoy, muhaqqaq, aslida, darvoqe, rostdan.*

2. Fikrning noaniqligini ifodalaydigan modal so'zlar:

1) fikrning taxminiyligini bildiradi: *shekilli, chamasi, chog'i;*

2) fikrning gumonli ekanligini bildiradi: *ehtimol, balki;*

3) fikrning tasmolli ekanligini bildiradi: *aftidan*;

4) fikrning chinligiga gumon ham, ishonch ham bildiradi: *har holda, har qalay*.

3. Xulosa qiladi: *xullas, demak*.

4. Afsusni anglatadi: *afsus, attang, esiz*.

5. Zaruriyatni bildiradi: *kerak, zarur, lozim*.

6. Mavjudlik va mavjud emaslikni anglatadi: *bor, yo'q*.

Bulardan tashqari: *binobarin, zero, holbuki, vaholanki* kabi modal so'zlar ham mavjud. Modal so'zlarning ko'pchiligi mustaqil so'zlardan o'sib chiqqandir:

1) ot turkumidan: *aftidan, haqiqatan, mazmuni, ehtimol, darhaqiqat*;

2) sifat turkumidan: *so'zsiz, shubhasiz, tabiiy*;

3) ravishdan: *albatta*;

4) fe'ldan: *hoynahoy* (tojikcha hohi – nahohi so'zidan kelib chiqqan);

5) bog'lovchidan: *balki*;

6) so'z birikmasidan: *har qalay, har holda*;

7) gapning modal so'zga aylanishi: *holbuki* (Hol buki);

8) so'z tushirish natijasida hosil bo'lgan: *o'z – o'zidan* (aniq so'zi tushib qoladi).

Xulosa

1. Globalashuv asrida axborot texnologiyalarining ommalashganligi, ilmiy tadqiqotlarning iqtisodiy samaradorligini oshirish dolzarblashganligi tufayli tilshunoslik ham amaliy vazifalariga – nutq samaradorligi tadqiqiga e'tiborni kuchaytirdi. Natijada tilshunoslikning jamiyat va inson nutqi bevosita bog'liq holda o'rganuvchi ijtimoiy tilshunoslik – sotsiolingvistika, til vakillari nutqini milliy etnik xususiyatlar tadrijida yorituvchi etnolingvistika, til birliklari va muayyan shaxs nutqi munosabatlarini aniqlovchi pragmatika, nutqning maqsadi, uning nutqiy vaziyat va aloqa, anglash va bilish jarayonidagi o'rnini tavsiflovchi psixolingvistika kabi yangi tarmoqlari vujudga keldi. Bu yo'nalishlarning mohiyati shundaki, endilikda nutqqa insoniy faoliyat – fikr almashtirish va o'zgalarga ta'sir ko'rsatish, bunyod qilishning asosiy turlaridan biri sifatida yondashilib, uning ixchamligi, samaradorligi va ta'sirchanligi, mantiqiyliqi tadqiqi birinchi o'ringa qo'yilmoqda. Shu asosda jahon tilshunosligida nutqning faoliyat sifatidagi qiymati hamda uning to'g'ri va ko'chma ma'nolarini ajratish, ochiq ifodalanmagan, lekin ifodalanishi so'zlovchining maqsadi bo'lgan ma'lumot – axborotni aniqlash usullari ishlab chiqildi va u tezda ommalashib ulgurdi. Bu yangi fanlarning ayrimlari respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida o'qitilayotganligi quvonarli, albatta.

2. Nutqiy muloqot o'nlab – milliy, etnografik, ijtimoiy, falsafiy-madaniy, axloqiy-estetik, tarixiy, maishiy va ruhiy omillarning lisoniy birliklar voqelanishi bilan qorishuvidan iborat harakatli tizimdir. Inson nutqida bu omillar u yoki bu tarzda mujassamlashadi, bir butun va yaxlit hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham nutqda subyektivlik va obyektivlikni bir-biridan ajratgan holda tadqiq qilish mumkin emas. Demak, nutqiy faoliyat unga yondosh va insonga xos ruhiy, fiziologik, ijtimoiy, ma'naviy, madaniy holatlar bilan bog'liqlikda tadqiq etilgandagina nutqiy muloqotning mohiyati ochiladi va individual hodisa sifatidagi nutqqa obyektiv baho beriladi. Bu esa, lisoning nutqiy voqelanishini unga

hamrohlik qiluvchi nutqiy paradigmalar (fiziologik, ruhiy, professional, axloqiy, estetik, madaniy, nutq vaziyati – nutq sharoiti, nutq uslubi) qurshovida tekshirish natijasida lisonni modifikatsiya qiluvchi vositalarning ta'siri va rolini baholash, nutqning ijtimoiy qiymatiga va ta'sirchanlik – bunyodkorlik qudratiga ilmiy tavsif berilishning nechog'lik ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi.

3. Tilshunoslikda so'zlarni bog'lovchi vositalar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, grammatik ma'no ifodalash, so'zlarni o'zaro teng yoki tobe holda bog'lash, nutqqa kiritish, gap bo'laklari mavqeini ta'minlash, tobe-hokimlik munosabatini saqlab turish, til uslublari uchun imkoniyat yaratish, nutqiy tejamkorlikni ta'minlash, tilning ontolik xususiyatlarini ko'rsatishda katta ahamiyatga ega. So'zlarni bog'lovchilar sintaktik vositalar hisoblanib, ular so'z birikmasi va gap tuzish jarayonida tayanch vazifa bajaradi. Kelishik shakllari, egalik shakllari, ko'makchilar, bog'lovchilar, yuklamalar (nokategorial shakllar) va boshqalar so'zlarni bog'lovchi vositalar hisoblanib, nutqda o'rni bilan vazifadosh til birliklari sifatida namoyon bo'ladi.

4. Tilshunoslikda so'zlarni bog'lovchi vositalar turli lisoniy sathlarga tegishli bo'lib, so'zlarni bog'lash vazifasi yuzasidan o'z lisoniy sathida ichida ichki, o'z lisoniy sathidan tashqarida (so'zlarni bog'lovchi vositalar bilan birgalikda) tashqi paradigmalarda gradual munosabatda ishtirok etadi. Bu esa tilning yaxlit tizim ekani, undagi birliklar esa doimo gradual munosabatda yashashini ko'rsatadi.

Yuklamalar o'z “bog'lash” ma'nosining susayganligi va buning evaziga “subyektiv munosabat” ma'nosi kuchayganligi bilan xarakterlanadi. Yuklamalarning umumiy grammatik ma'nosi, ya'ni substansial qiymati “qisman bog'lash”, “asosan subyektiv munosabat ifodalash” oraliq grammatik ma'nolariga parchalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –Toshkent, “O‘zbekiston”, 2011 y. –B.90.
2. Admoni V.G. Vvedenie v sintaksisi sovremennogo nemeskogo yazika. M., 1955
3. Arutyunova N.D. Tipi yazikovix znacheniy. Osenka. Sobitie. Fakt. Moskva, 1988
4. Arutyunova N.D. Problemi sintaksisa i semantika v rabotax Ch.Fillmora. "Voprosi yazikoznaniya". Moskva, 1973, №1 str.123
5. Arutyunova N.D. Ponyatie presuppozisii v lingvistike. Seriya literaturi i yazika. Moskva. 1973. tom-32. №1. str.85
6. Arutyunova N.D. Predlojenie i yego smisl. Moskva. 1976
7. Arutyunova N.D. O nomanitivnoy i kommunikativnoy modelyax predlojeniya. Moskva. 1972. Tom-31. №1. str. 41
8. Askakov K.S. Konspekt poslednix dvux otdelov pervoy chasti russkoy grammatiki. Moskva. 1980
9. Askakov K.S. Opit russkoy grammatike. Poln.sborn.soch. Moskva. 1980
10. Ashnin F.D. Ukazatelnie chastisi v tyurkskix yazikax. Seriya lit.i yazika. Moskva. 1958. Tom-17. №5. str.417
11. Ahmedov A. O‘zbek tilida gapning kommunikativ turlari. Toshkent. 1979
12. Baziev A.T., Isaev M. Yazik i nasiya. Moskva, 1973
13. Ballert I. Ob odnom uslovii svyaznosti teksta. V kn.: Novoe v zarubejnoj lingvistike. Vip.№8. Moskva. 1978. str.175
14. Baskakov N.A., Sodikov A.S. Abduazizov A.A. Umumiy tilshunoslik. Toshkent, 1979.
15. Benvenist E. Obshaya lingvistika. Moskva. 1974
16. Berezin F.M. Istoriya lingvisticheskix ucheniy. Moskva. 1975

17. Berezin F.M. Russkoe yazikoznanie konse XIX-nachala XX vekov. Moskva, 1976
18. Bogdanov V.V. Semanticheskaya organizatsiya predlozheniya. Avtoreferat doktorskogo dissertatsiya. Leningrad, 1977
19. Bazarov O. O'zbek tilining yuklama kategoriyasi. "O'zbek tili va adabiyoti". 1977, 2-son, 27-bet
20. Borovkov A.K. "O nekotorykh ocherednykh voprosakh orfografii uzbekskogo literaturnogo yazika". Zapiski instituta vostokovedeniya. AN . Vip.: №6. 1947. str-70
21. Budagov R.E. K teorii sintaksicheskikh otnosheniy. "Voprosi yazikoznaniya". Moskva, 1973. №1 str.15
22. Budagov R.A. Chelovek i yego yazik. Moskva, 1974
23. Vinogradov V.V. Istoriya russkix lingvisticheskix ucheniy. Moskva. 1978
24. Vinogradov V.V. Russkiy yazik. Moskva, 1986
25. Gak V.G. Teoreticheskaya grammatika frantsuzskogo yazika. Moskva, 1981
26. Duden. Grammatik der deutschen Gegenwartssprache. Uchpedgiz. 1962.
27. Duden. Deutsches. Universalwörterbuch. Mannheim-Leipzig Wien -Zürich. 1989.
28. Duden. Das Bedeutungswörterbuch. Bd.10. Mannheim-Zürich. 1963.
29. Duden. Das Herkunftswörterbuch. Bd.7. Mannheim-Wien-Zürich. 1970.
30. Fremdwörterbuch. Leipzig. 1963.
31. Hojiev A.P. Tilshunoslik terminlarning izohli lug'ati. T.O'qituvchi. 2002.
25. Langenscheidts Großwörterbuch. Deutsch als Fremdsprache. Berlin-München-Wien-Zürich-New York. 2002.
32. Ruscha-internatsional so'zlar lug'ati. Toshkent. 1978.
33. Synonymwörterbuch. Leipzig. 1973.

Foydalanilgan internet saytlari ro'yxati:

34. <http://www.altinmiras.com>. Flologiya.
35. <http://www.du.uz>. Morfologiya.

36. <http://www.lingvoda.ru>
37. <http://www.translate.ru>
38. <http://www./uzber.fire-speaker.org>
39. <http://www.o'zmu.uz>.Filologiya.
40. <http://ziyonet.uz>.Filologiya.
41. <http://www.tdpu.uz>.Filologiya.